

**ТДИУ ҲУЗУРИДАГИ  
ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА  
ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ  
МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ  
ТАРМОҚ МАРКАЗИ**



**ЎҚУВ-УСЛУБИЙ  
МАЖМУА**

**ТОШКЕНТ-2021**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ПЕДАГОГ ВА РАЎБАР  
КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ  
МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ БОШ  
ИЛМИЙ - МЕТОДИК МАРКАЗИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ҲУЗУРИДАГИ ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИ ҚАЙТА ТАЙЁРЛАШ  
ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ТАРМОҚ  
МАРКАЗИ**

**КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ  
йўналиши**

**“КОРПОРАТИВ МОЛИЯ”  
МОДУЛИ БЎЙИЧА**

**Ў Қ У В – У С Л У Б И Й  
М А Ж М У А**

**Тошкент – 2022**

Модулнинг ўқув-услубий мажмуаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2020 йил “7” декабрдаги 648-сонли буйруғи билан тасдиқланган ўқув дастурига мувофиқ ишлаб чиқилган.

**Тузувчи:** Р.Х. Карлибаева – ТДИУ профессори

**Тақризчи:** С.Э.Элмирзаев – ТМИ “Корпоратив молия ва қимматли қоғозлар” кафедраси профессори

*Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>13</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>21</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>37</b>
<b>V. KO`CHMA MASHG‘ULOTLAR MAVZULARI.....</b>	<b>54</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>61</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>73</b>

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **KIRISH**

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy

uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Korporativ moliya” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini korporativ moliya va uning kontseptual asoslarini, korporativ tuzilmalar passivlari, aktivlari va moliyaviy natijalarini shakllanishi, taqsimlanish tizimini nazariy-amaliy asoslari bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

#### **“Korporativ moliya” modulining vazifalari:**

- korporativ moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, tashkiliy tamoyillari, rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribalariga asoslangan holda uni boshqarish tizimini yoritib berish;

- korporativ mulkchilik shaklida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari kapitallari tarkibini shakllanishi, aktivlarga investitsiyalash jarayonining nazariy va amaliy asoslarini xorijiy tajriba asosida yoritish;

- korporativ mulkchilik shaklidagi xo'jalik sub'ektlarida moliyaviy natijalarni shakllanishi va taqsimlanish tizimi to'g'risida tinglovchilarning bilimi, malakasi va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Korporativ moliya” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- korporativ moliya tushunchasini;
- korporativ moliyaning zarurligini;
- korporatsiya moliyasining tamoyillarini;
- korporativ moliyaning zamonaviy nazariyalarining kontseptual asoslarini;
- pul oqimlar tushunchasi va uning mazmunini;
- pul oqimlarining tahlilini;
- byudjetlashtirishning mohiyati va ahamiyatini;

- pul oqimlarining likvidlilik koeffitsientini;
- korporatsiya moliyaviy faoliyat elementlarini;
- korporativ moliyani boshqarining zamonaviy funktsional elementlarini;
- korporativ mulkchilik shakllarida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari moliyaviy resurslarini shakllanishi, ularni taqsimlanishiga oid ilg'or xorijiy tajribalarini **bilishi kerak.**

**Tinglovchi:**

- korporatsiyalar pul daromadlari va jamg'armalarni shakllantirish;
- pul mablag'larini taqsimlash;
- pul oqimlarini prognozlash va optimallashtirish;
- hisob raqamdagi pul mablag'larini optimal miqdorini (Q) hisoblash;
- korporatsiyalarda nazoratni tashkil etish;
- korxonalar iqtisodiy potentsialini oshirish;
- korporativ mulkchilikka asoslangan xo'jalik sub'ektlarda passivlarni (moliyaviy resurslarni) shakllanish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalarini baholash;
- korporativ mulkchilikka asoslangan xo'jalik sub'ektlarda shakllantirilgan moliyaviy resurslarni aktivlarga samarali investitsiyalash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribalarini qo'llash;
- kompaniyalar moliyaviy natijalarini shakllantirish;
- foydani taqsimlanish tizimining nazariy va amaliy jarayonlari bo'yicha **ko'nikmalarni egallashi lozim.**

**Tinglovchi:**

- korporativ moliya va uni boshqarishning funktsional elementlari asosida kompleks tahlil qilish;
- zamonaviy sharoitlarda korporativ mulkchilik shakllaridagi xo'jalik sub'ektlarida passivlarni shakllantirish;
- aktivlarga investitsiyalash siyosati samaradorligini kompleks tahlil qilish va baholash;
- korporatsiyalashni istiqboldda rivojlantirishning moliyaviy strategiyasini tahlil qilish va o'ziga xos ravishdagi taraqqiyot stsenariysini ishlab chiqishga oid **malakalarini egallashi lozim.**

**Tinglovchi:**

- mamlakatda tayyorlanayotgan moliya sohasidagi mutaxassislarni o'qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlash;
- korporativ moliya fanidan xorijning ilg'or tajribalariga asoslangan holda, zamonaviy axborot va pedagogik taxnologiyalar asosida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar olib borish **kompetentsiyasiga** ega bo'lishi zarur.

**Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Korporativ moliya” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'quv jarayonida ta'limning interfaol o'qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida aqliy hujum, kutish yo'ldoshi, kontseptual jadval, o'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT- tahlil jadval, T-javdal kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalarni qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Korporativ moliya” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejadagi “Dividend siyosati”, “Korporativ boshqaruv” hamda “Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari” kabi o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning kontseptual asoslari bo'yicha ilmiy va amaliy malumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish bo'yicha kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		Ko'chma mashg'ulot		
1	Korporativ moliyaning iqtisodiyotdagi o'rni	6	2	4	
2	Pul oqimlarini boshqarish va byudjetlashtirish	6	2	4	
3	Korporatsiyalarda moliya ishi va nazorat	4	2	2	
4	Korporatsiyalarda innovatsion faoliyatni boshqarish	2		2	
<b>Jami:</b>		<b>18</b>	<b>6</b>	<b>12</b>	



## NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

### **1-mavzu: Korporativ moliyaning iqtisodiyotdagi o'rni**

Korporativ moliya tushunchasi. Korporativ moliyaning zarurligi. Korporatsiya moliyasining tamoyillari. Korporatsiyalar pul daromadlari va jamg'armalarni shakllantirish. Pul mablag'larini taqsimlash. Korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati. Korporatsiyaning asosiy faoliyati. Korporativ moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Korporatsiya mablag'lari tarkibi. Korporatsiyalarning passivlari tarkibi, Korporatsiyalarning aktivlari tarkibi.

### **2-mavzu: Pul oqimlarini boshqarish va byudjetlashtirish**

Pul oqimlar tushunchasi va uning mazmuni. Pul oqimlarining tahlili. Pul oqimlarini prognozlash va optimallashtirish. Sof pul oqimlarining etarlilik koeffitsienti. Byudjetlashtirishning mohiyati va ahamiyati. Byudjetlashtirish usullari. Pul oqimlarining likvidlilik koeffitsienti. Pul mablag'lari tushumlari tarkibini aniqlash usuli. Pul mablag'lari holatining o'zgarishini agregatsiyalashtirilgan baholash usuli. Hisob raqamdagi pul mablag'larini optimal miqdorini (Q) hisoblash.

### **3-mavzu: Korporatsiyalarda moliya ishi va nazorat**

Korporatsiyalar moliyaviy faoliyati. Korporatsiyalar moliyaviy mexanizmi. Korporatsiyalarda nazoratni tashkil etish. Korporatsiya moliyaviy faoliyat elementlari. Korporatsiya moliyaviy mexanizmi korxonada faoliyatini ta'minlovchi tizim bo'lib, moliyaviy metodlar, moliyaviy richaglar hamda normativ, huquqiy va axborot ta'minoti bazasini kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy mexanizm. Moliyaviy metod. Moliyaviy richag. Huquqiy ta'minot. Normativ ta'minot. Axborot ta'minoti. Korxonada iqtisodiy potentsialini oshirish. Moliyaviy hisobotlardan tashqi foydalanuvchilari. Moliyaviy hisobotlardan tashqi foydalanuvchilari. Kapital qo'yilmalar prognozlari, loyixalari va rejalarini. Risk darajalari. Foyda hajmi va optimal variantlarga baho berish. Istiqbolli, joriy, operativ moliyaviy rejalar, xorijiy valyutalar tushishi va foydalanishi rejalarini ishlab chiqish.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-amaliy mashg'ulot:**

#### **Korporativ moliyaning iqtisodiyotdagi o'rni**

Korporativ moliya tushunchasi. Korporativ moliyaning zarurligi. Korporatsiya moliyasining tamoyillari. Korporatsiyalar pul daromadlari va jamg'armalarni shakllantirish. Pul mablag'larini taqsimlash. Korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati. Korporatsiyaning asosiy faoliyati. Korporativ moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Korporatsiya mablag'lari tarkibi. Korporatsiyalarning passivlari tarkibi, Korporatsiyalarning aktivlari tarkibi.

## **2-amaliy mashg'ulot:**

### **Pul oqimlarini boshqarish va byudjetlashtirish**

Pul oqimlar tushunchasi va uning mazmuni.. Pul oqimlarining tahlili. Pul oqimlarini prognozlash va optimallashtirish. Sof pul oqimlarining etarlilik koeffitsienti. Byudjetlashtirishning mo'iyati va a\amiyati. Byudjetlashtirish usullari. Pul oqimlarining likvidlilik koeffitsienti. Pul mablag'lari tushumlari tarkibini aniqlash usuli. Pul mablag'lari holatining o'zgarishini agregatsiyalashtirilgan baholash usuli. Hisob raqamdagi pul mablag'larini optimal miqdorini (Q) hisoblash.

## **3-amaliy mashg'ulot:**

### **Korporatsiyalarda moliya ishi va nazorat**

Korporatsiyalar moliyaviy faoliyati. Korporatsiyalar moliyaviy mexanizmi. Korporatsiyalarda nazoratni tashkil etish. Korporatsiya moliyaviy faoliyat elementlari. Korporatsiya moliyaviy mexanizmi korxonalar faoliyatini ta'minlovchi tizim bo'lib, moliyaviy metodlar, moliyaviy richaglar hamda normativ, huquqiy va axborot ta'minoti bazasini kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy mexanizm. Moliyaviy metod. Moliyaviy richag. Huquqiy ta'minot. Normativ ta'minot. Axborot ta'minoti. Korxonalar iqtisodiy potentsialini oshirish. Moliyaviy hisobotlardan tashqi foydalanuvchilari. Moliyaviy hisobotlardan tashqi foydalanuvchilari. Kapital qo'yilmalar prognozlari, loyixalari va rejalari. Risk darajalari. Foyda hajmi va optimal variantlarga baho berish. Istiqbolli, joriy, operativ moliyaviy rejalari, xorijiy valyutalar tushishi va foydalanishi rejalari ishlab chiqish.

## **4-amaliy mashg'ulot:**

### **Korporatsiyalarda innovatsion faoliyatni boshqarish**

Innovatsiya tushunchasi va uning mohiyati. Korporatsiyalarda innovatsiyalarni rivojlantirish. Korporatsiyalarda innovatsiyalarni samarali boshqarish. Innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish. Milliy innovatsion tizim. Korporatsiyalarda investitsiya muhitini yanada takomillashtirish. Korxonalarda innovatsion jarayonlarni tizimli shakllantirish muammolari. Innovatsion dasturlarni moliyalashtirish mexanizmlari. Innovatsion maxsulotning samaradorligini aniqlash

## **KO'CHMA MASHG'ULOT**

“Korporativ moliya” moduli bo'yicha o'quv dasturida “Aktiyadorlik jamiyatlari investitsion loyihalarini baholash ” mavzusida 2-soat ko'chma mashg'ulot rejalashtirilgan.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi:

→ *o'quv ishini tashkillashtirishning interfaol shakllaridan*: binar-ma'ruza, provokatsion-ma'ruza, savol-javobli ma'ruza, suhbat-ma'ruzalar orqali

tashkillashtirish nazarda tutilgan.

→ *o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanish nazarda tutilgan:*

- ma'ruza mashg'ulotlarida ommaviy, juftlik, individual;
- amaliy mashg'ulotlarda guruhli, jamoaviy, juftlik, individual.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab

yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 797-sonli Qarori

### III. Maxsus adabiyotlar

17. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

18. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessi podgotovki pedagogga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKSPress, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

19. Gulobod Quadratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

20. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

21. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

22. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

23. Obrazovanie v tsifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf)

24. Sovremennie obrazovatelnie texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo TsRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

25. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish kontsepsiyasi. Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. [https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3\\_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf](https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf)

26. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.

27. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.

28. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

29. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
30. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.
31. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publiciations. 2015. 183.
32. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O’quv qo’llanma. – T.: “Akadem nashr”, 2011. - 472 b.
33. Jonathan Berk, Peter De Marzo. Corporate Finance: The Core.- USA: Pearson, 2014.
34. Harvey Rosen, Ted Gayer. Public Finance. UK: Pearson, 2013.
35. Frederick Mishkin. Financial Markets and Institutions. USA: Global Edition, 8 edition Pearson Education, 2015.
36. Tsifrovaya ekonomika: 2019: kratkiy statisticheskiy sbornik / G.I. Abdraxmanova, K.O. Vishnevskiy, L.M. Goxberg i dr.; Nats. issled. un-t «Visshaya shkola ekonomiki». – M.: NIU VShE, 2019. – 96 s.
37. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R.. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.

#### **IV. Internet saytlar**

38. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) - O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti.
39. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O’zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali
40. [www.lugat.uz](http://www.lugat.uz), [www.glossaiy.uz](http://www.glossaiy.uz) - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme.
41. [www.uz](http://www.uz) - O’zbek internet resurslarining katalogi:
42. Infocom.uz elektron jurnali: [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)
43. <http://www.bank.uz/uz/publisIVdoc/>
44. [www.press-uz.info](http://www.press-uz.info)
45. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
46. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
47. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
48. [www.vestifinance.ru](http://www.vestifinance.ru)
49. [www.imf.org](http://www.imf.org)
50. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Yurtimizda iqtisodiy ta'limda o'qitish texnologiyalari, avvalo, insonparvarlik tamoyiliga asoslangandir. Falsafa, pedagogika va psixologiyada ta'kidlanganidek, bu yo'nalishning asosiy farqli tomoni shundaki, bunda butun diqqat-e'tibor tinglovchining shaxsiga qaratiladi.

Shuning uchun ham ta'lim jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tinglovchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil, faol bilim olish faoliyatini tashkil etishga qaratish asosiy jihatlardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'qitiladigan fanlarning O'quv-uslubiy majmualarini yaratishda zaruriy komponent hisoblangan ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda va uning universal ko'rinishini yaratishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

➤ akademiyada tahsil olayotgan tinglovchilarning muqaddam amaliy tajriba va ko'nikmalarga ega ekanligini inobatga olib, ularni ishlab chiqarishga yanada yo'naltirish, moslashtirish maqsadida mutaxassislik fanlaridan chuqurroq bilimlarni berish, zamonaviy boshqaruv kadrlariga xos bo'lgan malaka ko'nikmalarini shakllantirish;

➤ tinglovchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, sababiy bog'liqlikda ilmiy xulosalar yasashga o'rgatish, har qanday masalaga tanqidiy, tahliliy va ijodiy yondashish va mushohada yuritish sirlari bilan qurollantirish, o'z mutaxassisliklari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bilimlarni etkazish;

➤ pedagogik faoliyatga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning ustuvor usul va vositalarini o'rgatishdan iborat.

Ma'lumki, Akademiya tahsil olayotgan tinglovchilar boshqa OO'Yu magistraturasi bosqichida tahsil olayotgan tinglovchilardan bir nechta jihati bilan farqlanadi.

Birinchiidan, Akademiya tinglovchilari amaliy tajriba va ko'nikmalarga, ya'ni o'qishga kirgunga qadar kamida ikki yillik ish stajiga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham ularga berilayotgan zamonaviy nazariy bilimlar, ularning amaliy orttirgan ko'nikmalarini yanada boyitishga xizmat qilishi lozim.

Ikkinchiidan, tinglovchilarning ish o'rinlarini saqlagan holda ta'lim olishlari va ish joylarida ularni soha mutaxassislari ekanligini e'tiborga olib, ularni asosan boshqaruv bilan bog'liq, ya'ni jamoani yagona maqsad sari etaklash, tezkor

qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq majmuaviy bilimlar bilan qurollantirish lozim bo'ladi.

Yuqorida aytilgan jarayonlarni mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etish uchun Akademiyaning magistratura mutaxassisliklari O'quv rejalarida aks etgan fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini yaratishda zaruriy komponent bo'lmish, ta'lim texnologiyasining quyidagi kontseptual yondashuvlariga ustuvorlik qaratiladi:

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.** Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa, ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi rahbar kadrlilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'liqligi va yaxlitligini.

**Suhbatli yondashuv.** Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta'lim.** Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni haqqoniy qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

**Ta'limni (o'qitishni) tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asolanagan ommaviy, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

**Boshqarishning usul va vositalari:** o'quv mashg'ulotining bosqichlari, belgilangan maqsadga erishishda pedagog va tinglovchining faoliyati nafaqat auditoriya ishini, balki mustaqil va auditoriyadan tashqari bajarilgan guruh ishlarining nazoratini belgilab beruvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'uloti jarayonida (o'quv vazifa va topshiriqlarni bajargani uchun baholash, ta'lim oluvchining har bir o'quv mashg'ulotidagi o'quv faoliyatini baholash) va butun semestr davomida ta'lim natijalarini rejali tarzda kuzatib borishni o'z ichiga oladi.

## 1. MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI

Ma'ruza – o'qitishni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yo'naltiruvchilik – tinglovchilarni o'quv materialining asosiy holatlariga, uni kelgusi ish faoliyatidagi o'rni va ahamiyatiga diqqat qilishlariga imkon beradi;
- axborotlilik – o'qituvchi ma'ruza vaqtida holat, asosiy ilmiy dalillar va xulosalar mohiyatini ochib beradi;
- metodologik – ma'ruza vaqtida o'qitish usullari taqqoslanadi, ilmiy izlanishning asoslari namoyon etiladi;
- tarbiyalovchi – o'quv materialiga hissiy-baholash munosabatida bo'lishni uyg'otish;
- rivojlantiruvchi – bilim olishga bo'lgan qiziqishlarni, ya'ni mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Malaka oshirish kurslarida o'qitiladigan ma'ruzalarning asosiy shakllari va uning o'ziga xos xususiyatlari**

<p><b>Axborotli ma'ruza.</b> Bu an'anaviy ma'ruza shakli: ma'ruza rejasiga muvofiq o'quv materialini monologik tarzda va mantiqiy izchillikda bayon etishdan iborat.</p>
<p><b>Muammoli ma'ruza.</b> Yangi bilimlarni savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda tinglovchilarni professor-o'qituvchi bilan hamkorlikda va suhbat jarayoni orqali izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashtirish asosiy vazifa hisoblanadi.</p>
<p><b>Binar ma'ruza.</b> Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2 ta maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va tinglovchilarni o'zida namoyon etadi.</p>
<p><b>Yakuniy ma'ruza.</b> Qoida bo'yicha kursni yakunlaydi va butun davr mobaynida o'tilgan mavzularni umumlashtiradi. Bunday ma'ruzaga tayyorlanishda seminar mashg'ulotida, ommaviy savol-javob jarayonida aniqlangan tinglovchilar bilimidagi kamchiliklar hisobga olinadi va ularni bartaraf etishga, shuningdek kelgusida ushbu sohadagi tayyorgarligini takomillashtirishga urg'u beriladi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini beradi hamda kelgusida ushbu kursni o'rganish davomida shakllangan bilimlardan kasbiy va rahbarlik faoliyatida qanday qo'llash bo'yicha umumiy ko'rsatmalarni taqdim etadi.</p>



**Anjuman-ma'ruza.** Oldindan belgilangan muammo va ma'ruzalar tizimi bilan ilmiy-amaliy mashg'ulot (5-10 daq.) o'tkaziladi. Bunda muammoni har tomonlama yoritib berish nazarda tutiladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil bajarilgan topshiriqlarga va so'zga chiqqanlarning bergan fikrlariga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.

**Maslahatli-ma'ruza.** Turlicha reja ko'rinishida tashkil etish mumkin.

1. "Savol-javoblar" – o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha tinglovchilarning savollariga javob beradi.

2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni qanday izlashni ham tashkillashtiradi.

### **O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini amalga oshirish**

**O'quv mashg'ulotiga kirish.** Ma'ruza mavzusi ifodalanadi; rejalashtirilayotgan o'quv natijalari tinglovchilarga etkaziladi va ushbu o'rganilishi kutilayotgan masalalarning kelgusida kasbiy va rahbarlik faoliyati uchun ahamiyati tushuntirib beriladi; xabar qilinadi: ma'ruza rejasini, asosiy toifa va tushunchalar, mustaqil ish uchun adabiyotlar ro'yxati.

Yangi o'quv axboroti tinglovchilarda avvaldan bor bo'lgan ma'lumotlar bilan mantiqiy bog'liqligi kichik-ma'ruza, suhbat, chalg'ituvchi va muammoli savollar orqali ta'minlanadi.

**O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi.** O'quv mashg'ulotini tuzilishiga va ma'ruza rejasiga muvofiq ma'ruza olib boriladi/keng ko'lamli suhbat tashkil etiladi. Ushbu jarayonda rejaning har bir savoli bo'yicha tinglovchilar o'rta chiqadilar/ma'ruza va berilgan topshiriqlarni muhokama yoki munozaraga aylanishi ta'minlanadi.

#### **Ma'ruza mobaynida:**

- asosiy tushunchalar, ta'riflar, sanalar va boshqa statistik ma'lumotlar ajratib ko'rsatiladi (aytib turiladi);

- har bir savolni yoritib bo'lingandan so'ng, qisqa umumlashtiruvchi xulosalar qilinadi; ma'ruzaning bir savolidan keyingi savoliga o'tishda mantiqiy aloqa ta'minlanadi;

- ma'ruzada tinglovchilarning bilish faolligi ta'minlanadi: materiallarni tushunishlari uchun aniqlik kirituvchi savollar beriladi; kichik guruhlarda erkin fikr almashishga ruxsat beriladi; jamoaviy munozara tashkillashtiriladi; aniq, muammoli vaziyatlar muhokama qilinadi, amaliyotdan misollar keltiriladi;

tinglovchilarga yangi fakt va vaziyatlarni avval o'rgangan bilimlari bilan taqqoslash taklif etiladi.

### **O'quv mashg'ulotining yakuniy bosqichi:**

Mavzu bo'yicha xulosalar orqali yakun yasaladi. Tinglovchilarning savollariga javob beriladi.

O'quv mashg'ulotining natijalari izohlanadi:

- belgilangan maqsadga erishish darajasi aniqlanadi;
- o'quv faoliyat natijalarining baholari e'lon qilinadi (imkoni boricha alohida).

Uyda mustaqil o'qib-o'rganishlari uchun topshiriqlar beriladi (ishni bajarishga ma'lumotlar va yo'llanmalar taqdim etiladi), uni baholash ko'rsatkichi va mezonlari ma'lum qilinadi. Zarur bo'lganda qanday savollar seminar mashg'ulotiga olib chiqilishi va boshqa mustaqil o'rganilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar etkaziladi.

## **2. AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLLARI**

**Seminar** – ta'lim beruvchini ta'lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda tatbiq etish bo'yicha sharoitni ta'minlovchi mashg'ulotning o'qitish shakli.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- nazariy materiallarni tartibga solish;
- ko'nikmalarni hosil qilish;
- bilimlarni chuqurlashtirish va nazorat qilish.

Seminar shaklidagi mashg'ulotga o'tish o'zaro harakatni eshittirish (translyatsiya) sxemasidan muloqotga o'tishni, monologdan dialogga o'tishni anglatadi.

Tayyorgarlik va seminarni olib borish bir qator savollarga javob berishni talab etadi:

1. *Nima uchun?* – vazifa va seminarni olib borish umumiy olganda ta'lim berish maqsadlariga mos bo'lishi kerak.

2. Seminar shaklida mashg'ulotni olib borish texnologiyasini *Qanday qilib?* - ishlab chiqish kerak.

3. Seminar vaqtida muhokama qilish kerak bo'lganda, material mazmunida - *Nimani?* ishlab chiqish zarur.

4. Seminarni olib borish vaqtida, ya'ni hisobga olish muhim bo'lgan omillar - *Nimani hisobga olgan holda?* belgilanishi zarur.

5. Seminarni boshqarish uchun uning samaradorligini ta'minlash maqsadida undan foydalanish mumkin bo'lgan, ta'sir etish vositasini - *Qanday yo'l bilan?* aniqlash mumkin.

### **Malaka oshirish kurslarida tashkil etiladigan seminarlarning asosiy shakllari va uning o'ziga xos xususiyatlari**

**Keng ko'lamli suhbat.** Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

**Press-konferensiya.** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi.

Qancha ko'p jiddiy tayyorgarlik ko'rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma'ruzachi javob beradi, so'ngra istagan bir tinglovchi o'z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo'shimcha ma'ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo'lsa, faol bo'ladilar. O'qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo'yicha yoki seminar yakunida o'z xulosasini taqdim etadi.

**Muammoli vaziyatlarni (keyslarni) echish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lgan, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

### **O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini amalga oshirish**

**O'quv mashg'ulotiga kirish.** Seminar mavzusi ifodalanadi; rejalashtirilayotgan o'quv natijalari aytiladi va ularni kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati tushuntirib beriladi; seminar rejasi va o'quv mashg'uloti tuzilishi

ma'lum qilinadi; seminardagi o'quv faoliyatining baholash ko'rsatkichlari va mezonlari e'lon qilinadi.

Seminar va ma'ruza mashg'ulotining mantiqiy aloqasi kichik-ma'ruza, suhbat, chalg'ituvchi va muammoli savollar orqali ta'minlanadi.

Tekshirish o'tkaziladi/diagnostika va tinglovchilarning seminarga tayyorgarligi baholanadi.

**O'quv mashg'ulotining asosiy bosqichi.** Tanlangan seminar mashg'uloti shakli bilan muvofiqlikda o'quv jarayonini tashkillashtirish amalga oshiriladi: keng ko'lamli suhbat olib boriladi, bu jarayonda rejaning har bir savoli bo'yicha tinglovchilar fikr bildiradilar/ma'ruza va referatlar eshitiladi va muhokama qilinadi/munozaraga aylanadi/muammoli topshiriqlar, keyslar hal etiladi/ta'limiy o'yin o'tkaziladi/ kollokvium/press-konferentsiya/o'quv loyihalar taqdimoti/kichik-guruhlar tarkibida o'zaro o'qish tashkillashtiriladi/yozma (nazorat) ishlari yoki maxsus o'quv topshiriqlar bajariladi.

Seminarda tinglovchilarning bilish faolligini ta'minlash uchun:

- seminar mashg'uloti muammosini echish jarayonida o'qituvchi va tinglovchi o'rtasida suhbat tashkillashtiriladi;

- tinglovchilarni o'z fikrlarini bildirishlariga, so'zga chiqishlariga qiziqtirish amalga oshiriladi;

- tinglovchilarning barcha javoblari va fikrlarining amaliy tahlili o'tkaziladi;

- tinglovchilarni konspektlarda qayd etib borishlari tashkillashtiriladi va nazorat qilinadi.

- Seminar mashg'ulotigacha mustaqil ish natijalarini aks ettiruvchi tinglovchilar tomonidan yozilgan konspekt, jadval, chizmalar va boshqa materiallarning tayyorlanganligi nazorat qilib boriladi.

Tanlangan o'qitish modeli bilan muvofiqlikda quyidagi samarali usullar qo'llaniladi:

- Interaktiv ta'lim metodlari: aqliy hujum, pinbord, muammoli vazifa va vaziyatlar, keyslarni echish, ta'limiy o'yin, o'quv loyihalar metodi, aylana stol atrofida evristikli/ keng ko'lamli suhbat, munozara va boshq.

- Ommaviy, jamoaviy va guruhli (juftlik) ta'lim shakllari.

- O'qitish vositalari: maktab yozuv taxtasi, flipchart, kompyuter jihozlari.

- O'quv-uslubiy va ko'rgazmali materiallar: o'quv materiallari, ekspert varaqlari, yo'riqnomalar, o'quv topshiriqlar, slaydlar va h.k.

- Taxmin qilinayotgan o'quv natijalariga erishishni tezkorlikda nazorat qilishni ta'minlovchi qaytar aloqaning yo'llari: kuzatish, blits-so'rov, savol-javob, test o'tkazish, konspektlarni tekshirish va boshq.

**O'quv mashg'ulotining yakuniy bosqichi.** Guruhli ish natijalarini o'zaro baholash tashkillashtiriladi. Olingan natijalar umumlashtiriladi. Yakun yasaladi. Tinglovchilarning savollariga javob beriladi.

Seminarda jamoaviy ish natijalariga baho beriladi. Tinglovchilarni seminarga tayyorgarligi, ularni faolligiga baho beriladi. O'quv mashg'ulotining natijalari izohlab beriladi:

- maqsadga erishish darajasi aniqlanadi;
- alohida o'quv faoliyatining baholari e'lon qilinadi.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

## 1-MAVZU. KORPORATIV MOLIYANING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

---

#### Reja:

1. Korporatsiya moliyasining asosi va moliya tizimida ularning roli.
2. Korporativ moliyaning funksiyalari
3. Korporativ moliyani shakllantirishning manbalari.

#### 📌 Tayanch soʻz va iboralar

*moliya, korporativ, korporativ moliya, moliyaviy munosabat, prinsip, biznes, tashkiliy-huquqiy shakl, korporativ moliyaviy siyosat, o'zini o'zi moliyalashtirish, majburiyatlar bo'yicha javobgarlik*

#### 1. Korporatsiya moliyasining asosi va moliya tizimida ularning roli.

Zamonaviy biznesni tashkil etish uni amalga oshirishning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Shulardan biri korporativ moliya hisoblanadi.

U yoki bu shaklni tanlash ko'pgina omillarga bog'liq va birinchi navbatda uning tashkiliy-huquqiy xususiyatlar bilan belgilanadi; kapital egalari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan mulk shakllari; nafaqat o'ziga xos sohaviy xarakterga ega bo'lgan texnologik jarayonlar, balki resurslar, shu jumladan moliyaviy jarayonlar qanday amalga oshirilishini aniqlaydigan sanoat xususiyatlariga ham bog'liq.

Bundan tashqari, ma'lum bir korxonani tashkil etishda o'ziga xos jixatlarini iqlim va geografik (hududiy) sharoitlarini hisobga olish kerak. Umuman olganda, korxonada u yoki bu biznesni amalga oshirishda nafaqat berilgan sharoitlarda mavjud bo'lgan resurslarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi, balki juda aniq maqsadlarni ko'zlaydi, shu bilan iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, davlat, milliy, global xarakterdagi va boshqa bir qator vazifalarni hal qilishda yuzaga keladigan munosabalar ishtirokchisi hisoblanadi.

Korxonaning maqsadiga kelsak, birinchi navbatda uning muvaffaqiyat faoliyat olib borishi muhim hisoblanib, bu o'z navbatida nafaqat vazifalarni hal qilish, balki maqsadga erishishdagi, biznesga xos bo'lgan jarayonlarni doimiy ravishda qayta tiklash imkoniyatini beradigan oldindan bashorat qilingan natijani olishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, tegishli manbalardan yig'ilgan mablag'lar nafaqat keyingi davrda qaytarib berilishi, balki ishlab chiqarilgan mahsulotning ommaviy e'tirofi, shuningdek, qiymat harakatining yangi tsiklini boshlash uchun etarli bo'lishi kerak.

## **2. Korporativ moliyaning funktsiyalari**

Korporativ moliyaning namoyon bo'lishni o'ziga xos mohiyati va tashqi shakllariga ega. Korporativ moliya mohiyati uning ichki mazmunidan kelib chiqib asosiy qiymat kategoriyasi sifatida tushuniladi. Korporativ moliya mohiyati o'ziga xos funktsiyalarida namoyon bo'ladi. Ularni amalga oshirish moliyaviy munosabatlarning ichki mazmuni va namoyon bo'lish shakllarini aks ettiruvchi bir qator moliyaviy kategoriyalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu moliyaviy kategoriyalar to'plami korporatsiyalarning iqtisodiy va tijorat faoliyatini to'liq aks ettiradi.

Ushbu kategoriyalarning eng muhimlari kapital, sotishdan tushum, narx, tannarx, yalpi va sof mahsulot, foyda, rentabellik, asosiyva aylanma mablag'lar, amortizatsiya va boshqalar. Moliya butun ijtimoiy mahsulotni va yangi yaratilgan qiymatni taqsimlash mexanizmida majburiy va faol vositadir.

Sotilgan mahsulot buyicha naqd pul tushumini olish odatda sarflangan mablag'lari va mehnat ob'ektlarini qoplash uchun foydalanishni, shu maqsadda ilgari ishlatilgan aylanma mablag'larni tiklashni o'z ichiga oladi. Daromadlarni taqsimlash yangi yaratilgan qiymatini aniqlashga imkon beradi va shu sababli korporatsiyada, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida, shu jumladan turli darajadagi byudjetlarda shakllangan bir qator pul mablag'larini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, daromadlarni va yangi yaratilgan qiymatni birlamchi taqsimlash, shu asosida turli xil pul daromadlari va fondlarini shakllantirish korporatsiyalar moliyasi taqsimlash funktsiyasini daromad va moliyaviy resurslarni taqsimlash jarayonida xarajatlarning asosiy nisbatlarini aniqlashga mo'ljallangan, korporatsiya, kontragentlar, tashkilotlar va davlat manfaatlarining maqbul uyg'unligini ta'minlashga mustaqil yondashishga imkon beradi.

Moliyaning taqsimlash funktsiyasi tufayli amalga oshiriladigan taqsimot, birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash, shu bilan birga ishlab chiqarishning barcha bosqichlari bilan uzviy bog'liqligi muhim sanaladi. Shunday qilib, korporatsiyalar moliyasining taqsimlash funktsiyasi resurslar aylanishini uzluksizlikni ta'miglash, daromad olish uchun asos yaratish va korporatsiyani yanada rivojlantirish uchun datslabki shart-sharoitlarni yaratadi.

Pul oqimlarini boshqarishda taqsimlash funktsiyasidan samarali foydalanish biznesning moliyaviy natijalarini oshirish imkoniyatini beradi. Agarda resurslar aylanmasining izdan chiqishi sodir bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish va sotish harajatlarning o'sishi, sotishning pasayishi, daromadlarning pasayishi, moliyaviy ahvolning yomonlashishi, moliyaviy boshqaruvning va ularning taqsimlash funktsiyasidan samarasiz foydalanishining dalilidir.

## **3. Korporativ moliyani shakllantirishning manbalari.**

Moliyaviy resurslarning datslabki shakllanishi bosqichida, odatda, korporatsiya egalari hisobidan utsav kapitalining umumiy miqdorini shakllantiriladi. Ushbu ustav kapitalini shakllantirish uchun quyidagilar jalb qilinishi mumkin: tadbirkorning shaxsiy mablag'lari, aktsioner kapitali, uchinchi shaxslarning

badallari, uzoq muddatli bank krediti va ushbu biznesda ishtirokchilarning mablag'laridan iborat bo'ladi.

Kelgusida moliyaviy resurslarning etariligi va moliyaviy ahvolning barqarorligi, moliyaviy ko'rsatkichlari, kafolatlar va majburiyatlar, rag'batlantirishlar korporatsiyalar moliyasining asosiy tamoyillariga rioya qilish bilan va erishiladi, Shuningdek iqtisodiy natija uchun javobgarlik uchun qat'iy talablar quyiladi. Korporatsiyalar moliyasini tashkil etishda muhim printsipli moliyaviy mustaqillik hisoblanadi.

Bu shuni anglatadiki, korporatsiya nafaqat bozorning tegishli segmentidagi yo'nalishini mustaqil ravishda belgilaydi, balki o'z biznesining moliyaviy natijalari, ishlab chiqarish, tijorat va ijtimoiy rivojlanish uchun to'liq javobgar bo'ladi. Korporatsiya o'zining investitsiya siyosatini amalga oshirish maqsadida mustaqil qarorlar qabul qiladi va fond bozorining to'liq ishtirokchisi hisoblanadi. Moliyaviy mustaqillikni cheksiz deb bo'lmaydi, chunki davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga qonun hujjatlarida muayyan cheklovlar kiritish, faoliyatning ayrim turlari uchun me'yoriy hujjatlar va boshqalarni kiritish huquqiga ega.

Masalan, turli darajadagi byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar bilan munosabatlari davlat soliq siyosati davlat tomonidan qonuniy tartibga solinadi.

Korporatsiyalarda moliyaviy mustaqilligi uning - o'zini o'zi moliyalashtirish printsipli zarurligini isbotlaydi.

Bu esa, korporatsiyaning iqtisodiy va investitsion faoliyatlariga talabni, ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, byudjetga to'lovlarni, foyda va tannarxdan majburiy ajratmalarni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarajatlarini foyda va boshqa manbalar hisobidan ta'minlanishi kerakligini anglatadi. Ushbu tamoyil shakllantirilgan biznesning, bozor sharoitida iqtisodiy yutuqlarga erishishining asosiy shartlaridan biridir.

Korporatsiyaning asosiy manbalari taqsimlanmagan foyda va amortizatsiya hisoblanadi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish odatda o'z mablag'lari bilan cheklanib qolmaydi va loyihaning samaradorligi mumkin bo'lgan qarzni qaytarishni ta'minlaydi.

Korporatsiyaning asosiy va investitsiya faoliyatlarining mavjudligi ularning har biri uchun mablag'larning aylanishini ta'minlashda, mablag'larni majburiy ajratishni talab qiladi shundan, asosiy faoliyat uchun ajratilgan mablag'lar kapital qurilish uchun ishlatilishi mumkin emas va aksincha. Bu birinchi navbatda, asosiy faoliyatga yo'naltirilgan aylanma mablag'larning chiqarib olinishi, korporatsiya faoliyatining har bir bosqichida tsiklik uzilishiga olib kelishi mumkin.

### **Nazorat savollari**

Korporativ moliyaning mohiyati va uning tashkil etilishi mavzusini puxta o'rganishda va bilimlarni mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Korporativ moliyaning iqtisodiy mohiyatini bilasizmi?
2. Korporativ tuzilmalarda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflab va tavsiflab bera olasizmi?



3. Korxonada pul mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida tashkil etiladigan pul fondlarini sanab o'ting va ularning iqtisodiy ahamiyatini izohlang.
4. Korporativ moliyani tashkil etish prinsiplari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudmi?
5. O'z xarajatlarini o'zi qoplash prinsipi nimaga yo'naltirilgan?
6. Aylanma mablag'larni shakllantirish manbalarini o'z va qarz manbalariga ajratish prinsipining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qanday ta'siri bor?
7. Moliyaviy zaxiralar tashkil etishning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyatini izohlang.
8. Biznesni tashkil etishning korporativ shakllarini sanab o'ting.
9. Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tashkiliy xususiyatlarini izohlab bering.
10. Aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy xususiyatlarini tavsiflab bering.
11. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari faoliyatining o'zaro farqli xususiyatlarini keltiring.
12. Unitar korxonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsating.
13. Korporativ moliyaviy siyosatning asosiy yo'nalishlarini sanab o'ting.
14. Moliyaviy o'zaro bog'liqlik mexanizmini qanday tushunish mumkin?

## 2-MAVZU. PUL OQIMLARINI BOSHQARISH VA BYUDJETLASHTIRISH

---

### Reja:

- 1. Pul oqimlar tushunchasi va uning mazmuni.**
- 2. Pul oqimlarining tahlili.**
- 3. Pul oqimlarini prognozlash va optimallashtirish**

#### **✎ Tayanch so'z va iboralar**

*xorijiy kapital, xalqaro aktsiya, xalqaro obligatsiya, evroobligatsiya, kredit notalari, xalqaro lizing, anderrayter, kredit shartnomalari, listing talablari, xorijiy bank kreditlari, LIBOR, PIBOR*

### **1. Pul oqimlar tushunchasi va uning mazmuni.**

Korxonaning rivojlanishi va moliyaviy jihatdan barqarorligi ko'p jihatdan majburiyatlari qoplanishini ta'minlovchi pul mablag'lari oqib kelishiga bog'liq. Korxonada to'lov qobiliyatini saqlab turishi lozim. To'lov taqvimini singari dastak yordamida korxonada pul mablag'larini boshqarish yanada samarali bo'ladi.

**To'lov taqvimi** korxonaning naqd va naqd pulsiz shakldagi barcha xarajatlari hamda pul mablag'lari tushumini qamrab oladi. U korxonaning qisqa muddatli (kun, hafta) va uzoq muddatli (oy, yil) davrlardagi pul oqimlarini rejalashtirish imkonini beradi. Asosiy to'lovlarning davriyligidan kelib chiqib muddat belgilanadi. U ehtimoliy **kassadagi uzilishlar\*** yoxud ortiqcha pul

mablag'larini oldindan aniqlash va to'lovlarni tezkor ravishda qayta rejalashtirish imkonini ham beradi.

Korxonada pul oqimlarini tezkor va o'rtacha muddatda rejalashtirish taomilining samarasizligi yoxud ularni bartaraf etishga doir puxta choralar ko'rilmaganligi oqibatida korxonada kassadagi uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

**To'lov taqvimini joriy etgan korxonada:**

**q** moliyaviy holatini prognozlashi;

**q** daromadlar va xarajatlarni boshqarish jarayonlarini yanada oydinlashtirishi;

**q** faoliyat yuritishning iqtisodiy sharoitlari o'zgarganda moslashuvchan va asosli qarorlarni qabul qilishi;

**q** kreditlardan samarali foydalanishi;

**q** korxonaning ishonchliligi hamda kreditorlar, investorlar va boshqa biznes hamkorlarining unga bo'lgan ishonch darajasini oshirishi mumkin bo'ladi.

## **2. Pul oqimlarining tahlili.**

Pul mablag'larini tahlil maqsadiga ko'ra bir necha usullarda aniqlash mumkin. Pul mablag'lari asosan naqd ko'rinishda bo'lib, biroq analitiklar pul mablag'larini aylanma kapital sifatida tasnif etadilar.

Umuman olganda pul oqimlari to'g'risidagi xisobotni tayyorlash bir necha bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqichda olingan davr mobaynida yakuniy balansdagi o'zgarishlar klassifikatsiyalanadi.

Ikkinchi bosqichda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdan olingan ko'rsatkichlar, pul mablag'lari hajmini oshishiga va kamayishiga olib kelgan ko'rsakichlarga bo'linadi.

Uchinchi bosqichda yuqoridagi bosqich yakunlari bo'yicha olingan ma'lumotlar pul oqimlari to'g'risidagi hisobotda birlashtiriladi.

Pul mablag'lari hajmini oshirish manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Aktiv statyalarining sof kamayishi.
2. Asosiy vositalarning umumiy kamayishi.
3. Xar qanday majburiyatlar statyasining kamayishi.
4. Oddiy va imtiyozli aktsiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari.
5. Xo'jalik faoliyati davomida kelib tushgan pul mablag'lari.

Pul mablag'larining ishlatilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aktivning xar qanday statyalaridagi sof o'sishlar.
2. Asosiy vositalarning umumiy o'sishi.
3. Har qanday majburiyatlarning kamayishi.
4. Aktsiyalarni sotilishi.
5. Naqd holda to'langan dividendlar.

«Moliya resurslarining bozor orqali o'tadigan qismi moliya bozorining ob'ektini tashkil etadi. Bunday munosabatlar mulkdorlar bilan pulga extiyojmandlar o'rtasida yuz beradi. Pul bozorga chiqarilgan ekan, u istemolchining talabini qondirish uchun ishlatiladi. Lekin shu bilan birga puldan foyda ko'rish maqsadi, pulni ko'paytirib undan qo'shimcha pul topish moliya

ishlatiladigan pul ya'ni sotish va sotib olish jarayonlarni moliya bozorining ikki tomonini ko'rsata, ya'ni bir tomonda iste'molni qondiruvchi pul bozori bo'lsa, ikkinchi tomonda kapital bozori bo'ladi. Bu vazifalar bir necha bozor shakllarni taqozo etadi.

Sof pul oqimlarining etarlilik koeffitsienti:

$$\frac{SPOEKq}{SPO} \frac{JAQ + \Delta TMZHO' + DT}{SPO}$$

Bu erda, SPOEK- sof pul okimlarining etarliligi koeffitsienti;

SPO- sof pul okimi;

JAK-jami karz mablag'i;

$\Delta TMZHO'$ - tovar moddiy zahiralarning o'sishi;

DT- dividend tulovi

Pul mablag'lari byudjetini ishlab chiqish va baholashning asosiy me'zoni mahsulot sotilishining istiqbol ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar alohida yoki bir paytning o'zida ichki va tashqi axborotlarning tahlili natijasida aniqlanadi. Birinchi holatda savdo agenti tomonidan kelgusi davrga sotiladigan maxsulotlar xajmini baholash tavsiya etiladi. Tijorat direktori baholash natijalarini tartibga solib, mahsulot turlarga asosan birlashtiradi. Shundan so'ng mahsulot turlariga asosan sotilish istiqbol ko'rsatkichlari firmaning umumiy sotish hajmiga ko'shiladi. Ushbu usul, ya'ni ichki axborotlar tahlilida asosiy kamchiligi bunda tarmoqdagi o'zgarishlar va umuman butun iqtisodiyotda o'zgarishlar hisobga olinmasligi hisoblanadi.

### 3. Pul oqimlarini prognozlash va optimallashtirish

Korxonalar pul oqimlarini boshqarish jarayoni quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

**1. Axborotlarning ishonchliligi tamoyili.** Har qanday boshqariladigan tizim, shuningdek, sub'ekt pul oqimlarini boshqarishda ham zaruriy axborot bazasi bilan ta'minlanishi kerak bo'ladi. Bunday axborot bazalariga ega bo'lish o'z-o'zidan ma'lum qiyinchiliklarni hal qilishni talab etadi. Ayniqsa, moliyaviy hisobotlar tuzish va ulardan foydalanishda yagona buxgalteriya hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tashqil etishni shakllanitirish va boshqalar bu tamoyilga tayanilishini yaqqol ko'rsatadi.

**2. Balanslashtirilishi tamoyili.** Sub'ektlar pul oqimlarini boshqarish ko'proq uning tarkibiy guruhlanishidagi asosiy shakllar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayonlarni bir-biriga ma'lumotlarning mosligi va turli shakldaligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu tamoyil sub'ekt pul oqimlarini asosiy shakllari, hajmi, vaqt oralig'i va boshqa xususiyatlariga qarab muvozanatlashtirishni talab etadi.

Sub'ektning pul oqimlarini boshqarish jarayonlarida pul oqimi va undan foydalanishni maqbullashtirilishini ko'zda tutadi.

**3. Samaradorlikni ta'minlash tamoyili.** Sub'ekt pul oqimlarini boshqarishda ma'lum bir vaqtda pul mablag'larining tushumini va sarflanishining bir me'yordaligini, bo'sh turgan pul mablag'larining aktivligini oshirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish, muayyan vaqtdagi qiymat bahosini samarali tashkil etishga qaratiladi. Bu tamoyilga sub'ekt moliyaviy investitsiyalarini harakatlantirish yo'li bilan pul oqimlarini samarali boshqarish va boshqalar kiradi.

**4. Likvidlikni ta'minlash tamoyili.** Sub'ekt pul oqimlarining alohida shakllari bo'yicha yuqori darajadagi maromsizlik yuzaga kelishi natijasida vaqtincha pul defitsiti paydo bo'lib, uning likvidlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun sub'ekt pul oqimlarini boshqarishning davrlarida bu oqimlar likvidligini etarli darajada ta'minlash zarur. Pul mablag'lari rejasini tuzishda moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, sub'ekt to'g'risida atroflicha ma'lumot olinadi, shu asosda korxonada pul mablag'larining tushumi va sarflanishi, shuningdek, moliyaviy holat, pul mablag'larining harakatining faollik darajasi tahlil etiladi. «Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da sub'ektning moliyaviy resurslari tarkibidagi o'zgarishlar va pul mablag'larining harakati, xususan, joriy xo'jalik faoliyati jarayonida bu mablag'larning kelib tushishi, sarflanishi, yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan qismi aks ettiriladi.

ul oqimlarining likvidlik koeffitsienti  
 $KLq = \frac{PMT - (PMKy.b - PMKy.o)}{PMS}$ ;

Bu erda:

KL- likvidlik koeffitsienti;

PMT- pul mablag'lari tushumi;

PMKy.b.- yil boshidagi pul mablag'lari qoldig'i;

PMKy.o- yil oxiridagi pul mablag'lari qoldig'i;

PMS – Pul mablag'larining sarflanishi summasi.

Pul oqimlarini boshqarishda moliyaviy axborotlar bilan ishlash jarayonidagi eng muhim jihatlaridan biri sub'ekt faoliyati, xususan, uning xo'jalik faoliyati haqida alohida xulosalar chiqarish uchun zarur bo'ladigan qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

## Nazorat savollari

Korporativ moliyada xorijiy kapitalni jalb etish to'g'risida ma'lumotlarni puxta o'rganish hamda talabalar bilimlarini mustahkamlashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Xorijiy kapitalni jalb qilishning qanday shakllarini bilasiz?
2. Xorijiy banklardan kreditlar olish tartibini bilasizmi?
3. Qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'ozlarni xorijda joylashtirish bo'yicha qanday talablar amal qiladi?
4. Aksiyalarni xalqaro fond birjalarida joylashtirish tartibini bilasizmi?
5. Banklar hududiy joylashuvidan qat'iy nazar qarz olish uchun qo'yiladigan majburiy talablarni sanab o'ting.
6. Sindikatli kreditlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.
7. Xorijiy kreditlar qanday afzalliklarga ega?
8. Xorijiy banklardan kreditlar jalb qilishning kamchiliklarini bilasizmi?
9. Jahon amaliyotida kredit notalarining qo'llanish xususiyatlarini izohlang.
10. Yevroobligatsiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
11. Yevroobligatsiyalar muomalaga chiqarish bo'yicha majburiy talablarni sanab o'ting.
12. Moliyalashtirish manbasi sifatida yevroobligatsiyalarning asosiy afzalliklarini sanab o'ting.
13. Yevroobligatsiyalar orqali mablag' jalb qilishning kamchiliklarini izohlab bering.

## 3-MAVZU. KORPORATSIYALARDA MOLIYA ISHI VA NAZORAT

---

### Reja:

1. Korporatsiyalar moliyaviy faoliyati.
2. Korporatsiyalar moliyaviy mexanizmi.
3. Korporatsiyalarda nazoratni tashkil etish

### ✎ Tayanch so'z va iboralar

*dividend, dividend to'lovi, xususiy aksiyalarni sotib olish, muntazam dividend, likvidatsion dividend, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromadlilik, dividend haqida qaror, dividend haqida e'lon, dividend to'lashning boshlanish sanasi, dividend to'lashning tugallanish sanasi, muddati o'tgan dividendlar*

## **1. Korporatsiyalar moliyaviy faoliyati.**

Korporatsiya moliyaviy faoliyati- moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanishi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlardir.

Har qanday tizim kabi korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyati ham sifat va miqdor ko'rsatkichlari yordamida o'lchanishi mumkin bo'lgan xarakteristikalariga ega. Korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyati generatsiyasining alohida olib qaraladigan har bir tarkibiy qismi uning tarkibiga kiruvchi turli elementlar majmui sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu ko'p sonli elementlarning umumiy yig'indisi (jamlangan ifodasi), ularning vektorli, ya'ni aniq maqsadli yo'nalishi korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyatining o'ziga xos modeli sifatida o'rganiladi. Printsipial jihatdan olib qaralsa, tadqiqot ob'ektini an'anaviy iqtisodiy-statistik va tahliliy uslublar yordamida ham ifodalab berish mumkin, ammo zamonaviy tadqiqot va ilmiy tahlil ishlarini olib borish uslubiyoti shunchalik yuksak darajada shakllantirilganki, tadqiqot natijalarini mutlaqo yangi, ilgarigidan ancha yuksak darajada sharhlash imkoniyatini beradi. Zamonaviy tadqiqot uslublari yordamida korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy faoliyatida kuzatiladigan bog'lanishlarni muayyan tarzda tizimlashtirilgan turli xil ma'lumotlar asosida juda sodda va qisqa (lo'nda) qilib ta'riflash bo'ladi. Bu o'rinda tadqiqot ob'ektiga taalluqli tizimlashtirilgan ma'lumotlarni tegishli matritsalar sifatida o'rganish mumkin. Ushbu matritsalar korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyatining turli tarkibiy qismlari generatsiyasi qay darajada samarali kechayotganini aks ettiradi. Korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyatining aksariyat ko'rsatkichlari miqdor ko'rsatkichlari, ya'ni son ko'rinishida ifodalanishi mumkin bo'lgan o'lcham (kattalik, qiymat) yordamida belgilanadi. Bu parametrlar mutlaq yoki nisbiy ma'no, o'sish sur'atlari, koeffitsientlar va hokozolar ko'rinishini olishi mumkin. Ularning umumiy xususiyati shundaki, ular vaqt o'lchamlari yordamida o'lchanadigan (dinamik, davriylik xususiyatiga ega) jarayonlarda pog'onama-pog'ona shaklda tasavvur etiladi. Bunday xususiyatga ega kattaliklar skalyar (lotincha scalaris so'zidan olingan bo'lib, «pog'onali» degan ma'noni beradi) kattaliklar deb ataladi. Bunday kattaliklarning qiymati birgina son yordamida ifodalanishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqarishda band bo'lgan xodim(ishchi)lar soni, ishlab chiqarishga sarflanadigan material hamda fondlar sig'imi va hokazo kattaliklar. Korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyatini aks ettiruvchi ikkinchi turdagi skalyar munosabatlar keng ko'lamdagi nisbiy kattaliklar yordamida o'lchanadi. Ular sarmoya salohiyati vujudga kelishining miqdor ko'rsatkichlari vositasida ifodalovchi qiymatlarning avvaldan belgilab berilgan indikatorlar yoki avvalroq olingan rivojlanish ko'rsatkichlari qatoridan koeffitsientli yoxud foizli shakllarda og'ishi darajasini ko'rsatadi. Korxonalar iqtisodiy-moliyaviy faoliyatining o'zgarishlarini aks ettiruvchi va o'zaro solishtirilishi mumkin bo'lgan dinamik ko'rsatkichlardan foydalanishning o'ziga yarasha qulayliklari bor. Jumladan, ular yordamida doimiy va o'zgaruvchan ko'rsatkichlarning katta ko'lamlardagi umumiy sinf va guruhlarini tuzish, o'ziga xos va yig'ma ko'rsatkichlarning zanjirli va bazisli tizimlarini qurish mumkin.

## **2. Korporatsiyalar moliyaviy mexanizmi.**

Korporatsiya moliyaviy mexanizmi korxonada faoliyatini ta'minlovchi tizim bo'lib, moliyaviy metodlar, moliyaviy richaglar hamda normativ, huquqiy va axborot ta'minoti bazasini kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Qoplashni aksionerlar qiziqishdagi menejment faoliyatini ta'minlashning yagona qulay mexanizm deb xioblash mumkin. Bundan tashqari investorlarni boshqaruv personallari faoliyati ustidan kuzatuvda ishtirok etishga qiziqtirish uchun, qoplash amaliyoti bu funktsiyani kompaniya aktsiyalari uchun yuqoriroq narx to'lay oladiganlarga taklif etishadi. «Korporativ nazorat bozori» deb ataluvchi erkin funktsiyalashuvchi qoplash bozori o'zida doimiy xarakatlanuvchi kompaniya aktivlari auktsioniga ega: agar kompaniya aktivlari qiymati ma'lum darajada bo'lsa, tashqi kompaniya buni o'zi uchun foydali deb xisoblaydi, uni «omadsizni» o'ziga qo'shib olib foydaga erishadi. Shuning uchun qoplash xavfi nafaqat aksionerlar qiziqishi, balki aksionerlar tomonidan nazorat bo'lmasada, aktsiya kursining maksimal yuqori qiymatiga erishishi uchun xarakat qilishga majbur etadi. Kompaniyaning boshqa qo'llarga o'tish xavfi sanoatni ratsionalizatsiyalashtiruvchi ishlarda direktorlar kengashi kamroq samarali bo'lgan joylarda nazoratning ancha samarali instrumenti xisoblanadi. Korxonalarining qo'shilishini yoki bo'linishini o'tkazishga ichki stimullar yo'q bo'lgan sharoitda biz tomonidan yuqorida yoritilgan auktsion menejment ishini optimallashtirishning samarali usuli xisoblanadi. Haqiqatda to'lash ishi bo'yicha bozorda egalik qilish, ya'ni xaridor katta kompaniyani qo'lga kiritib, uni bir necha kichik kompaniyalarga bo'lib tashlab, shuni anglatadiki, to'lash xavfida bo'lish ko'proq darajada yomon boshqariladigan korporatsiyalarda emas, yuqori diversifikatsion korporatsiyalarda tasdiqlangan. Oxirgi xolatda to'lash-boshqaruvning yaxshi shakli emas. U boshqaruv personal-larini almashtirishda ancha qimmat usul bo'lishi mumkin: sotib oluvchi kompaniyani xam, sotib olingan kompaniyaning xam faoliyatini nobarqarorlashtirilishi mumkin, yana shuningdek, ikki kompaniyaning ishi xam yaxshilanib ketishini xamma vaqt ishonch bilan aytib bo'lmaydi. Bundan tashqari amerikalik va angliyalik mutaxassislar xavfsirashni oldindan aytishadiki, korporativ nazorat bozorining mavjudligi menejmentlarni xavfsirashdan faqat qisqa muddatli dastur doirasida ishlashga rag'batlantiradi, chunki uzoq muddatli investitsion loyixalar ularning kompaniyalari aktsiya qiymatlari darajasiga ma'qul emas.

## **3. Korporatsiyalarda nazoratni tashkil etish**

Korporatsiyalarda nazoratni tashkil etishda aktivlar va ular shakllanish manbalarini tahlil qilish va baholash; korxonada iqtisodiy potentsialini oshirish va uning faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan moliyaiy resurslarning miqdori va tarkibiga baho berish; qo'shimcha moliyalashtirish manbalariga baho berish; moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni uchun nazorat tizimini shakllantirish.

Korporatsiyalar faoliyat davomida ko'plab muammo va xavf-xatarlarga duch kelishi mumkin, ya'ni korxonaning tez xarob bo'lish ehtimoli mavjudligi, o'sish

darajasi pastligi, aylanma mablag'larning etishmasligi, yuqori darajadagi raqobatning mavjudligi.

Korporatsiyalar moliyasini boshqarishda qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir eta oladigan omillar yuzaga kelishi mumkin:

- kapital strukturasi o'ziga xosligi;
- risklarning o'ziga xosligi;
- kredit foizlarining yuqorililigi;
- kafolatning mavjud emasligi;
- tavakkalchilik qilinishi.

Moliyaviy nazorat - moliyaning nazorat funksiyasini xayotga tatbik etish kurinishida namoyon bulib, u moliyaviy nazoratning mazmuni va yunalishini belgilab beradi.

Moliyaviy nazorat - bu maxsus shakl va uslublarni kullash orkali xujalik yurituvchi va boshkaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan boglik bulgan masalalarni tekshirishga karatilgan xarakatlar va taftishlar yigindisidir. Moliyaviy nazoratning ob'ekta bulib, unga moliyaviy resurslarning xarakati, shakllanishi va foydalanishdagi taksimlash va pullik jarayonlar shuningdek, tarmoklar iktisodining barcha buginlaridagi.fond shaklidagi pul resurslari xam kiradi.

Moliyaviy nazorat kuyidagi tekshirishlarni uzida aks ettiradi:

- ob'ektiv iktisodiy konunlar talabiga rioya etish;
- milliy daromad va yalpi ijtimoiy maxsulot kiymatini taksimlash va kayta taksimlashdagi optimallikni ta'minlash;
- davlat byudjeta daromadini tashkil etish va ijrosi (byudjet nazorati)ni ta'minlash;
- korxonalar, tashkilot va byudjet muassasalarida moliyaviy, mexnat va material resurslaridan samarali foydalanish;
- xujalik sub'ektlarining moliyaviy xolati va solik nazorati.

Moliyaviy nazoratning oldida xal kilinishi lozim bulgan kuyidagi vazifalar turadi:

tarmoklar iktisodidagi pul daromadlari va fondlari bilan moliyaviy resurslarga bulgan talab urtasidagi mutanosiblikka ta'sir utkazish;

davlat byudjeta oldidagi moliyaviy majburiyatlarni uz vaktida va tulikligicha bajarilishini ta'minlash;

moliyaviy resurslarni yuksaltirishda ichki ishlab chikarish rezervlarini aniklash;

tannarxni pasaytirish xisobiga rentabellikni oshirish yullarini kursatish;

xujalik sub'ektlarining pul resurslari ga moddiy boyliklarni maksadga muvofik ob'ektlarga sarflashga ta'sir kilish, shuningdek, buxgalteriya xisobi va xisobotini tugri yurgizish;



xarakatdagi konunchilik va normativ aktlarga rioya kilishni ta'minlash, shuningdek, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni solikka tortish mexanizmini takomillashtirish uchun takliflar berish;

korxonalarining tashki iktisodiy faoliyati va valyuta operatsiyalaridan yuksak iktisodiy samara olishga shart-sharoit yaratish va shu kabilar.

## **4-MAVZU. KORPORATSIYALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH**

- 1. Innovatsiya tushunchasi va uning mohiyati**
- 2. Korporatsiyalarda innovatsiyalarni rivojlantirish**
- 3. Korporatsiyada innovatsiyalarni samarali boshqarish**

### **1. Innovatsiya tushunchasi va uning mohiyati**

**Innovatsiya** – bu bozor talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Yangi iste'molchilik xususiyatlari yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini sifatli oshirish orqali bozorga mahsulot (tovarlar va xizmatlar)ni etkazib berish – innovatsiyaga misol bo'la oladi.

**Innovatsiya** – foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

“*Innovatsiya*” atamasi lotincha “*novatio*” so'zidan olingan bo'lib, “*yangilanish*” (yoki “*o'zgarish*”), “*in*” qo'shimchasi esa lotinchadan “*yo'nalishida*” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “*Innovatio*” ko'rinishida tarjima qilsak – “*o'zgarishlar yo'nalishida*” deb izohlanadi.

**Innovation** tushunchasi birinchi bo'lib **XIX-asrning** ilmiy tadqiqotlarida paydo bo'ldi.

“*Innovatsiya*” tushunchasi o'zining yangi hayotini “innovatsion kombinatsiyalar”ni tahlil qilish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishidagi o'zgarishlar natijasida **XX-asrning boshida** avstriyalik va amerikalik iqtisodchi **Y. Shumpeter**ning ilmiy ishlarida boshlagan. **Shumpeter 1900-yillarda** iqtisodda ushbu termini ilmiy qo'llashga kiritgan dastlabki olimlardan edi.

Innovatsiyaga har qanday turdagi **yangilik** sifatida emas, balki mavjud tizimning **samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil** sifatida qarashimiz lozim. Keng tarqalgan yangilish fikrlashlarga qaramasdan innovatsiyalar kashfiyotlardan farq qiladi

***Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi***

| **Ilm-fan** – bu ma'lum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish.

| **Innovatsiyalar** – bu bilimlar va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

**Ixtiro** – bu yangi kontseptsiyani yaratish demak.  
**Innovatsiya** – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

## **2. Korporatsiyalarda innovatsiyalarni rivojlantirish**

Texnologik innovatsiyalar texnologik jihatdan yangi mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlarda jiddiy texnologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bunda tatbiq etilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar samaradorlikning sezilarli darajada oshishi, mehnat unumdorligi, foydaning o'sishi, mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish uchun xarajatlarning qisqarishiga olib kelishi ko'zda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, usullarni o'z ichiga oladi. Korxonalar, tashkilot uchun sotib olingan va tatbiq etilgan hamda o'zlari ishlab chiqqan texnologik innovatsiyalar bir xilda muhimdir. Garchi oxirgi yillarda texnologik innovatsiyalarning o'rnini va ahamiyati keskin oshgan bo'lsa-da, ularni tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy ishlarning ko'lami ancha tor. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda texnologik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini o'rganishga qaratilgan urinishlar juda kam. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni texnologik innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish masalalarini tahlil qilish hamda shu asosda ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilish deganda innovatsiyalarni keng tatbiq etgan holda iqtisodiyotni yuqori texnologik, ilmiy sig'imi yuqori bo'lgan, kam energiya talab etadigan mahsulotlar, xizmatlarning salmog'ini oshirishga xizmat qiladigan strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali yangi darajaga olib chiqish jarayonini tushunish mumkin. Iqtisodiyotni innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilishning pirovard natijasi innovatsiya iqtisodiyotini shakllantirishdan iborat. Texnologik innovatsiyalar iqtisodiyotning modernizatsiyasiga jiddiy turtki bo'lishini ta'minlash uchun bir qator shartlar bajarilishi lozim, xususan: – fan, biznes va davlat o'rtasida texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish uchun samarali o'zaro hamkorlik; – ishlab chiqilayotgan texnologik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur institutsional asos, tashkiliy tuzilmalar, ularni o'zlashtirish uchun zarur infratuzilma; – innovatsiyalarni tatbiq etish uchun to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyoj. Bulardan tashqari, texnologik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha instrument va mexanizmlar doimiy ravishda takomillashtirib borilishi talab etiladi, chunki ayrim holatlarda aynan mazkur instrumentlarning mavjud holatga etarlicha moslashmaganligi, zamonaviy

talablarga javob bermasligi yaratilgan innovatsiyalarning o'z vaqtida va samarali o'zlashtirilishiga to'sqinlik qiladi. Ob'ektiv omillarga ko'ra sanoat sohasi iqtisodiyotning texnologik innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilishning asosiy lokomotivlaridan biri hisoblanadi. 2013 yilda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida yaratilgan 121 ta yangi texnologiyalar (texnik natijalar), dastur mahsulotlarining 103 tasi aynan sanoat tarmog'iga tegishli. Shularni hisobga olgan holda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda innovatsiyalarning rolini oshirishga qaratilgan harakatlar, birinchi navbatda, sanoat sohasini modernizatsiya qilish bo'yicha tadbirlar bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi ko'zda tutiladi. Sanoatni innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilishning samaradorligini ta'minlash vazifasini amalga oshirish uchun tegishli mexanizmni shakllantirish talab etiladi. Mazkur mexanizm iqtisodiyotni modernizatsiya qilish yo'nalishlarini hamda mazkur jarayonga aloqador bo'lgan barcha institutlarning funktsiyalarini aniq belgilab berishi zarur. Shu nuqtai nazardan davlatning iqtisodiy jarayonlarni tashkil etishdagi roli, iqtisodiyotning innovatsion-texnologik darajasini oshirish shartlari, modernizatsiyaning moliyaviy ta'minotini tashkil etishga yondashuvlar hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi bozor mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi quyidagi mexanizm diqqatga sazovor (1-rasm). Albatta mazkur mexanizmni innovatsion rivojlantirishning mukammal instrumenti deb bo'lmaydi, xususan, bu mexanizmni samarali qo'llanishi uchun innovatsion rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari etarli darajada shakllangan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, iqtisodiyotning innovatsion-texnologik darajasini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdagi iqtisodiy risklarni kamaytirish, texnologik innovatsiyalar yuzasidan ma'lumotlarni olish va tarqatish bo'yicha tadbirlar va shu kabilarni o'z ichiga olishi zarur.

### **3. Korporatsiyada innovatsiyalarni samarali boshqarish**

Zamonaviy moliya nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi. Bizningcha, investitsiyalar noaniqlik ehtimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratdir. Buning dalili sifatida investitsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirish mumkin. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonning almashtirilishi va o'zga iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'i nazar, yangidan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi. Xorijiy investitsiyalar,

xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim omillardan bo'lib mamlakatdagi barqaror iqtisodiyot, huquqiy-investitsion muhit, siyosiy va iqtisodiy xavfsizlik, rivojlangan infratuzilma, malakali mutaxassislar va albatta yaratilgan imtiyozlar va kafolatlar hisoblanadi. Investitsiyani jalb qilishda har bir mamlakatda davlatning roli va o'рни alohida bo'lganligi sababli investitsion munosabatlarda davlat faol ishtirokchiga aylanadi. Jumladan, u investitsion siyosatning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish choralarini ko'radi va amalga oshiradi, iqtisodiy, huquqiy normalar ni, huquqiy himoya vositalarini yaratadi. Soliq stavkalari, sanksiyalar va imtiyozlar investitsiya oqimining kirib kelishini ta'minlaydi va investitsion muhit va siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, mamlakatda investitsion muhit ko'p jihatdan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga bog'liq. Haqiqatan ham, investitsion muhitga ta'sir etuvchi boshqa omillar, jumladan barqaror iqtisodiyot, rivojlangan infratuzilma, innovatsion moliyalashtirish kabilar ham o'z ta'sirini ko'rsatsada, biroq bularning barchasi faqat qonunlarga asoslangan bo'lishi lozim. Respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish hamda innovatsion moliyalashtirishning hozirgi bosqichida davlat moliyaviy qarzlarni boshqarish tizimi alohida o'rin egallaydi. Davlat moliyasi barqarorligining va investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri – davlat qarzlarni samarali boshqarish yo'llari hisoblanadi. Shuningdek, davlat qarzlari muammosini hal qilish mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidir. Aynan, davlat qarzlarning boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzdorligi bilan bog'liq muammolarni hal etishni ishlab chiqish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish jarayonini doiraviy aylanishining uzviyligini ta'minlaydi. Shuningdek, jamiyat sub'ektlarining moliyaviy mablag'lar bilan doimiy ravishda ta'minlab turilishiga qulay sharoit tug'diradi. Moliyaviy munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirib borishda davlat qarzlarni samarali boshqarish, innovatsion moliyalashtirish va investitsion muhitning rivojlanishi katta ahamiyat kasb etadi. Investitsion muhitni belgilab beruvchi omillar, uni tez va tubdan yaxshilash, investitsion muhitning muhim moliyaviy jihatlari, oqilona siyosati, vaziyatni bosqichma-bosqich doimiy yaxshilab borish, nazorat qilish va boshqarish innovatsion moliyalashtirishga ta'siri bilan bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiyotning kelajagi boshqa omillarga nisbatan ko'proq aynan investitsion muhitning muhimligiga bog'liq. Iqtisodiy muammolar chigalligini faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan investitsion muhit hal etishi mumkin. Bu vazifani faqat keng miqyosda investitsiyalar oqimi yordamida hal etish mumkin. Amalda investitsiyalarni amalga oshirishning bir-biridan tub farq qiladigan ikki yo'li mavjud. Birinchi yo'l – resurslarni davlat qo'lida mobilizatsiyalash va davlat kapital qo'yilmalarining o'sishini ta'minlash. Ikkinchi yo'l – yirik miqyosdagi xususiy investitsiyalarni jalb

qilish, bu bozor iqtisodiyoti uchun ko'proq mos keladi. Biroq ular uchun shunchalik qulay investitsion muhit kerakki, u jamg'armalarni rag'batlantirishi va xalqaro kapital bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Faqat shu holdagina chet el investitsiyalari va mahalliy kapital oqimining chiqib ketishi to'xtatiladi. Bu sohada tub o'zgarishlarga erishish birinchi navbatdagi vazifadir. Uni hal etish bo'yicha ishlar islohotlarning zarur tuzilmalariga ular uchun zarur bo'lgan yangi hayotiy umid berish lozim. Shunga ko'ra, mavjud muammolarni bartaraf etishda real sektor korxonalarini bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi o'z isbotini topmoqda

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### AMALIY MASHG'ULOT DARSLARI UCHUN TOPSHIRIQLAR

#### MASALALAR

1. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 1000 birlik miqdorda. Ustav kapitali miqdorining 15% miqdorida rezerv kapitalini shakllantirish belgilab qo'yilgan. Rezerv kapitalini har yili sof foydaning 5% miqdoridan moliyalashtirish belgilangan. Agarda aksiyadorlik jamiyati kelgusida har yili 500 birlikda sof foydaga erishsa, qancha muddatda rezerv kapitalini to'liq shakllantirish mumkin.

2. Aksiyadorlik jamiyatida ustav kapitali miqdori jami aktivlarning 20%ini tashkil etadi. Xususiy kapital miqdori esa jami aktivlarning 40%ini tashkil etadi. Agarda aksiyadorlik jamiyatining uzoq va qisqa muddatli aktivlari miqdori 6:4 nisbatda bo'lsa, aksiyadorlik jamiyatining qisqa muddatli aktivlarining majburiyatlarini qoplash darajasini aniqlang.

3. Aksiyadorlik jamiyati bankdan 2 yilga 1000 birlik kredit oldi. Kredit foiz stavkasi 20% ni tashkil etadi. Kredit qaytarish grafigini tuzing. Kredit har oyda oylik asosiy qarz va foiz to'lovlarini amalga oshiradi.

4. ABS korporatsiyasida 3,6 million dona muomaladagi aksiyasi mavjud. Bir aktsiyaning bozor qiymati 14\$ ga teng. Globalning bozor kapitalizatsiyasi qancha? Va bozor kapitalizatsiyasi qanday qilib kapitalning balans qiymati bilan solishtiriladi?

5. Rentabellik va baholash koeffitsientlarni hisoblang. Muammo: Wal-Mart va Target Corporation uchun 2012 yil holatiga quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsin ( mlrd. AQSh dollarida).

Ko'rsatkichlar	Wal-Mart	Target Corporation
Sotishdan tushum	446.9	69.9
EBIT	26.6	5.3
Eskirish va Amortizatsiya	8.1	2.1
Sof foyda	15.7	2.9
Bozor kapitallashuvi	200.9	38.4
Pul mablag'lari	6.6	0.8
Qarz	58.4	17.5
Wal-Mart va Target Corporationning EBIT margin, sof foyda rentabelligini, P/E koeffitsientini, va firmaning bozor qiymatini uning sotish, EBIT va EBITDAGA nisbati koeffitsientlarini toping.		
<b>Yechim:</b>		
Wal-Martning EBIT marginni $26.6/446.9=6,0\%$ . sof foyda rentabelligi		

$15,7/446,9=3,5\%$  ga va P/E koeffitsienti  $200,9/15,7=12,8$  ga teng. Uning bozor qiymati  $200,9+58,4-6,6=252,7$  milliardga teng. Shunda uning sotish hajmiga nisbati  $252,7/446,9=0,57$ , EBITga nisbati  $252,7/26,6=9,5$  ga. EBITDAga nisbati esa  $252,7/(6,6+8,1)=7,3$  ga teng.

Target Corporationning EBIT marginni  $5,3/69,9=7,6\%$ . Sof foyda rentabelligi  $2,9/69,9=4,1\%$  ga va P/E koeffitsienti  $38,4/2,9=13,2$  ga teng. Uning bozor qiymati  $38,4+17,5-0,8=55,1$  milliardga teng. Shunda uning sotish hajmiga nisbati  $55,1/69,9=0,79$ , EBITga nisbati  $55,1/5,3=10,4$  ga. EBITDAga nisbati esa  $55,1/(5,3+2,1)=7,4$  ga teng.

## 6. Baholash printsiplarini qo'llash

Siz firmangizda operatsion menejersiz. Oldin mavjud bo'lgan shartnomaga asosan 12000\$ evaziga 200 barrel neft va 3000 fud mis sotib olish imkoniyatingiz mavjud. Joriy bozor narxlariga asosan bir barrel neft 50\$ va bir fud sim 2\$ ga teng. Siz buncha neft va misga muhtoj emassiz va ularning narxi kelajakda tushishi mumkin. Siz bu imkoniyatdan foydalanasizmi?

### **Yechim:**

Birinchi navbatda siz ularning puldagi qiymatini hisoblashingiz kerak.

$$200 \cdot 50 = 10000 \text{ hamda } 3000 \cdot 2 = 6000$$

Sizda 16000lik mahsulotmi 12000 ga olish imkoniyatiga egasiz. Siz bu erda 4000\$ foyda qilasiz va bu tovarlarni sotib olishingiz kerak. Chunki ular sizga kerak bo'lmasa ham yoki kelajakda narxi tushsa ham siz ularni qaytarib sotib daromad ko'rishingiz mumkin.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULAR RO'YXATI

### 1-Mavzu. Korporativ moliyaning iqtisodiyotdagi o'rni

1. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy boshqaruvning xususiyatlari
2. Korporativ moliyani boshqarishda moliyaviy menejerning asosiy vazifalari
3. Korporativ moliyada moliyaviy rejalashtirish

**Foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar:** Munozara, fikrlar jamlanmasi, ekspromt, muammoli vaziyatlar.

### Mustaqil ta'lim


“Korporativ moliya” fanidan yoziladigan mustaqil ish – bu ilmiy ish bo'lib, o'quv jarayoni davomida bajariladi va uni bajarishdan asosiy maqsad korporativ moliya va undagi moliyaviy faoliyatlarga doir qo'shimcha ma'lumotlarni, xususan amaliy ma'lumotlarni va ular bo'yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonini puxta o'rganish hamda o'rganan ma'lumotlarni belgilangan tartibda shakllantirish

orqali kelgusidagi ilmiy ishlariga ma'lum bir darajada tayyorgarlik ko'rishdan iborat.

“Korporativ moliya” fani bo'yicha mustaqil ish oldindan belgilangan mavzu va rejalarda doirasida tanlangan ob'yekt (Aksiyadorlik jamiyatlari yoki yirik mas'uliyati cheklangan jamiyatlar) bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etish bo'yicha xulosalar chiqarishga qaratilgan ham ilmiy ham amaliy fikrlarni aks ettiruvchi loyihaviy ishdur.

“Korporativ moliya” fanidan mustaqil ish aniq bir aksiyadorlik jamiyati yoki mamlakatimizda yirik va yuqori brendga ega bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyat misolida korporativ moliyaviy munosabatlarni o'rganishga qaratilgan bo'lishi shart. Mustaqil ish mavzusi va rejalari fanni o'rganayotgan har bir talaba uchun bir xil bo'lib, faqatgina mustaqil ishlarni bajarish obyektlari har xil bo'lishi talab etiladi. Mustaqil ish obyektlari har bir talaba uchun alohida bo'lish talab etiladi.

Mustaqil ishni bajarish muayyan bosqichlardan iborat bo'ladi:



**1-rasm. Mustaqil ishni tayyorlash, rasmiylashtirish va himoya qilish bosqichlari**

Mustaqil ishning yakuniy qismi – talabaning “Korporativ moliya” fanidan ma’ruza mashg‘ulotini o‘tayotgan professor-o‘qituvchi oldida uni himoya qilishidir.

Mustaqil ishni himoya qilishga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- belgilangan mavzu va rejalarda doirasida aniq bir aksiyadorlik jamiyati yoki yuqori brendga ega bo'lgan mas'uliyati cheklangan jamiyat misolida ma'lumotlarni chuqur o'rganish;
- mustaqil ishda chizma va jadvallarni muayayn tizimga keltirilgan holda rasmiylashtirish;
- mustaqil ish bo'yicha to'plangan materiallarni tanqidiy o'rganish;
Moliya bozori sig'imi tushunchasi aniq bir turdagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ularga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda mumkin bo'lgan yillik (oylik) savdo ko'lamini anglatadi. Moliya bozoridagi holat ijobiy va salbiy holatlarga ajratiladi. Mamlakatimizda moliyaviy aktivlarga talab ularga bo'lgan

taklifga nisbatan sezilarli darajada past. Moliya bozorida kon'yukturaning o'zgarishi moliyaviy instrumentlar bozor bahosi o'zgarishida namoyon bo'ladi. Moliya bozorining barqaror rivojlanishi moliyaviy aktivlarga talab va taklif o'rtasidagi nisbatning to'g'ri o'rnatilishi, ya'ni balanslilikni talab qiladi. Shunda moliyaviy instrumentlar barqaror va real baholarda sotiladi va sotib olinadi.

Moliya bozorida ham talab va taklif doimiy ravishda o'sib borishi lozim. Bu jihat moliyaviy aktivlarga bo'lgan talabning qanoatlantirilishi bilan bir vaqtning o'zida taklif qilinadigan moliyaviy instrumentlarning bozorda erkin sotilishini ta'minlaydi. Rivojlangan bozorda moliyaviy aktivlar ko'plab sanoat tovarlariga nisbatan aksariyat holatlarda yuqori likvidli hisoblanadi. Ularni qimmatli qog'ozlar kursi ko'tarilishi yoki pasayishiga qarab qulay sharoitdan foydalangan holda bir onda sotish yoki sotib olish mumkin. Shuning uchun moliya bozorining biror bir sub'ekti qimmatli qog'ozlarni sotuvchi yoki sotib oluvchi sifatida (muddatli shartnomalar – opsiyonlar, fyucherslar vositasida) qatnashishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarning daromadlilik va risk darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik amal qiladi. Ya'ni yuqori riskli qimmatli qog'ozlar (masalan yangi tashkil etilgan kompaniya aksiyalari) bo'yicha yuqori daromad ham taklif etiladi.

Moliya bozori nisbatan mustaqil segmentlar tizimini o'zida aks ettiradi. Masalan, korporativ qimmatli qog'ozlar bozori, davlat qarz majburiyatlari bozori, hosilaviy fond instrumentlari (hosilaviy qimmatli qog'ozlar yoki derivativlar) bozori va boshqalar.

Qamroviga ko'ra moliya bozorlarini xalqaro va ichki moliya bozorlariga bo'lish mumkin. O'z navbatida, ichki moliyaviy bozor moliyaviy markazlar (fond birjalari, yirik banklar, moliyaviy kompaniyalar va boshqalar)dan tashkil topgan regional bozorlarga ham bo'linadi. Ayrim mamlakatlar regional moliya bozorlarida regional (munitsipal) majburiyatni ifodalovchi obligatsiyalar ham muomalada bo'lishi mumkin.

Ichki moliya bozorlarda tovar sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- qimmatli qog'ozlar – emission va tijorat qimmatli qog'ozlari;
- sug'urta kompaniyalari, nodavlat pensiya fondlari va boshqa moliyaviy vositachilar qat'iy majburiyatlarini o'zida aks ettiruvchi qimmatli qog'ozlar;
- valuta qimmatliklari (xorijiy valutarlar va xorijiy valutada aks ettirilgan qimmatli qog'ozlar);
- qimmatbaho metallar va toshlar;
- pullar (milliy banknotalar, depozit va jamg'arma sertifikatlari).

Moliya bozoridan korporativ guruhlar tomonidan jalb qilingan pul mablag'lari quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- aksiyalarni birlamchi joylashtirishdan olinadigan pul mablag'lari ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan ustav kapitalini shakllantirish manbasi bo'lib xizmat qiladi;
- aksiyalar qo'shimcha emissiyasidan tushadigan pul mablag'lari ustav kapitalini oshirishga yo'naltiriladi;
- korporativ obligatsiyalarni sotishdan olinadigan pul mablag'lari real aktivlar (kapital qo'yilmalar)ni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin;

- aksiyadorlik jamiyati emission daromadi qo‘shimcha kapitalni to‘ldirish manbasi bo‘lib xizmat qiladi;

- tijorat veksellari hamkorlar bilan o‘zaro munosabatlarda to‘lov vositasi sifatida ishtirok etadi.

Umuman, moliyaviy bozorlar orqali korporatsiyalarning mablag‘lar jalb qilishi ularning moliyaviy barqarorligi va to‘lovga layoqatliligini oshiradi, shuningdek, iqtisodiy o‘sish uchun moliyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

## **2. Moliya bozorida korporativ qimmatli qog‘ozlar kursini belgilab beruvchi omillar**

Moliya bozorining tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozori boshqa bozor turlaridan o‘z tovarlari xususiyati bilan ajralib turadi. Chunki qimmatli qog‘oz – alohida maxsus xususiyatga ega bo‘lgan tovar hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar bir vaqtning o‘zida mulkka egalik qilish va daromad olish tituli sifatida xizmat qiladi. Qimmatli qog‘ozlar tovar sifatida o‘z nominal bahosiga ega bo‘lishiga qaramasdan, yuqori bozor bahosi bo‘yicha sotilishi mumkin. Bu holatni qimmatli qog‘ozlarning sanoatga yoki boshqa sohalarga joylashtirilgan kapital bir qismi ekanligidan kelib chiqadi.

Agar qimmatli qog‘ozga bozor talabi taklifdan yuqori bo‘lsa, o‘z-o‘zidan bozor qiymati nominal qiymatidan yuqori bo‘ladi. Qimmatli qog‘oz bo‘yicha bozor bahosining uning nominalidan keskin darajada farq qilishi soxta kapital yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Soxta kapital real kapitalning qog‘ozdagi egizagi hisoblanadi.

Soxta kapital bahosi quyidagi ikki omil orqali aniqlanadi:

1. Kapitalga talab va taklif o‘rtasidagi nisbat;
2. Emissiya qilingan qimmatli qog‘oz bo‘yicha kapitallashgan daromad miqdori.

Fond bozorida real amal qiluvchi kapital (pul va ssuda) bozori sifatida amal qiladi. Makrodarajada uning yordamida milliy xo‘jalikdagi iqtisodiy jarayonlar o‘z-o‘zidan tartibga solinadi. Bunga kapitalni investitsiyalash jarayonini keltirish mumkin. Mazkur jarayon kam daromadli tarmoqlardan yuqori daromadli tarmoqlarga kapital o‘tishini anglatadi. Natijada investitsiyalangan kapital bo‘yicha foyda miqdorini taqqoslash yuz beradi. Kapitalning bunday harakat mexanizmi ko‘pchilikka ma’lum. Ya’ni ma’lum bir tovarga talab oshsa mos ravishda ularning narxlari va ularni ishlab chiqarishdan foyda ham oshadi. Yangi texnologiyalar asosida faoliyat ko‘rsatuvchi tarmoqda kapital kam samara bilan ishlovchi xo‘jalik tarmog‘idan yo‘naltiriladi. Bunda qimmatli qog‘ozlar mazkur mexanizmning ishlashini ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Ular yordamida kompaniyalarda va jismoniy shaxslarda bo‘sh kapital jamlanadi va moliyaviy instrumentlar oldi-sotdisi orqali zaruriy yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi. Natijada ijtimoiy ishlab chiqarishning optimal tuzilmasi shakllanadi va defitsitsiz iqtisodiyot amal qilishiga zamin yaratiladi. Mazkur holatda ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi yalpi talabga mos tovar va xizmatlar yetkazib berishni nazarda tutadi.

Amaliyotda investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarga talab quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi:

- daromadlilik – dividend, foiz va kurs o'sishi kabi shakllarda daromad keltirish imkoniyati;

- risk darajasi – ma'lum bir darajada moliyaviy yo'qotishlar keltirish ehtimoli;

- likvidlilik – qimmatli qog'ozlar evaziga pul mablag'lari olish imkoniyati.

Investor o'z kapitalini joylashtirish variantlari (o'z mablag'larini bank depozitiga joylashtirish, tovar yoki ko'chmas mulk sotib olish va boshqalar)ni yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda o'zaro taqqoslaydi.

Bunda moliyalashtirish jarayonida narx shakllanish omillarini shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin:

- ob'ektiv omillar;

- spekuliyativ omillar;

- sub'ektiv omillar.

Ob'ektiv omillar moliya bozorining makro va mikro darajasida ko'zga tashlanadi. Makroiqtisodiy omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanish istiqbollari;

- yalpi ichki mahsulot tarkibida jamg'arma va iste'mol ulushlarining o'zaro nisbati;

- davlat qarzi miqdori va uning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i;

- kompaniyalar zimmasiga tushayotgan soliq yuki va ssuda foiz stavkasi;

- mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;

- barqaror xorijiy valyutalarga nisbatan milliy valyuta kursi;

- faoliyatni rivojlantirish maqsadida korporativ tuzilmalar tomonidan mablag' jalb qilish uchun emission qimmatli qog'ozlardan foydalanish darajasi.

Korporativ qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish hisobiga jalb qilinadigan real kapitaldan foydalanishga ob'ektiv makroiqtisodiy omillar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillarga asosiy kapitalni yangilash darajasi, kompaniyalar moliyaviy barqarorligi va to'lovga layoqatliligi, daromadlilik darajasi, tarmoqning istiqbolliligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Spekuliyativ (bozor) omillari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar savdosining aniq bir "dasturga" asoqlanganligi;

- fond bozorida qisqa yakunlovchi pozitsiya holati;

- korporativ tuzilmalarning o'z aksiyalarini sotib olishi.

Spekuliyativ omillarning har biriga to'xtalib o'tamiz. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha aniq dasturiy savdo fyuchers shartnomalari asosida aksiyalar kurslari o'rtasida farqdan foyda olish imkoniyatini belgilab beradi. Mazkur omil aksiyalarning birja orqali savdosida qo'shimcha beqarorlikka olib keladi. Dasturiy savdo amalda boshqa barcha omillarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holat aksiyalar bozor bahosining ular haqiqiy bahosiga nisbatan yuqori darajada oshgan vaqtda birja savdolarida yuzaga keladi va aksiyaga talabning pasayishiga xizmat qiladi. Voqeaning bunday rivojlanishi kutilmaganda birja inqiroziga olib keladi. Qisqa muddatli bunday pozitsiya o'z muddatida sotilgan aksiyalarning

umumiy miqdorini o'zida aks ettiradi. Agar bu ko'rsatkich yuqori bo'lib ketgan bo'lsa, bu holat ko'plab investorlar bir vaqtning o'zida aksiyalar kursi pasayishiga o'ynashidan kelib chiqishini anglatadi. Bunday holatning yuzaga kelishi emission qimmatli qog'ozlarning birja savdosida qo'shimcha beqarorlikka sabab bo'ladi. Korporativ tuzilmalarning o'z aksiyalarini sotib olishi boshqa kompaniyalar bidan birlashib ketishi mumkinligi sharoitida o'z moliyaviy holatini yaxshilashga intilishi yoki ta'sisчилarning aksiyalar nazorat paketi orqali o'z ta'sir ko'lamini mustahkamlashni hohlashiga guvohlik beradi. Har qanday holatda mazkur omil aksiyalar kursiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Sub'ektiv omillar ham xilma-xillikka ega. Ularni shartli ravishda quyidagilar bilan bog'liq holda uchta guruhga ajratish mumkin:

- moliya bozori faoliyat ko'rsatishining texnik jihatlari;
- korporativ qimmatli qog'ozlarni moliyaviy tahlil qilish metodlari (fundamental va texnik tahlil);

- yetakchi moliyaviy menejerlar (direktorlar) va kompaniyalar, fond birjalari, yirik banklar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa institutsional ishtirokchilari pozitsiyalari va yondashuvlari.

Bunday holatda, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish jarayonida emission qimmatli qog'ozlar kurs qiymati dinamikasiga, ularning daromadliligi, xavfsizligi va likvidliligiga ta'sir etuvchi ham ob'ektiv, ham sub'ektiv omillarni hisobga olish lozim. Hattoki iqtisodiyotni va korporativ qimmatli qog'ozlar kursi bo'yicha birja operatsiyalarini davlat tomonidan tartibga solish sharoitida ham moliya bozorida holatni tahlil qilish va baholash uchun muhim ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

## GLOSSARIY

TAYANCH SO'Z VA IBORA			MAZMUN-MOHIYATI TALQINI
O'ZBEK TILIDA	INGLIZ TILIDA	RUS TILIDA	
aksiya	share	aktsiya	o'z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan emissiyaviy qimmatli qog'oz; aksiyadorlik jamiyatlarida ulush munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'oz.
aksiyalar bo'yicha opsionlar yoki fond opsionlari	options on shares yoki stock options	optsiioni na aktsii	bazaviy aktivlari aksiyalar bo'lgan opsionlar
antisipativ foiz stavkasi	anticipative interest rate	Antisipativnaya protsentnaya stavka	tijorat diskontlashda joriy qiymatni aniqlash keltirish me'yori sifatida qo'llaniladigan d stavka
avtomatik reinvestitsiyalash	automatic reinvestment	avtomaticheskoe reinvestirovanie	aksiyadorlarga naqd pul shaklida dividend olish yoki uni qo'shimcha aksiyalarga reinvestitsiya qilishdan birin tanlash huquqini taqdim etish
axborotni oshkor qilish	disclosure of information	raskritie informatsii	qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat'i nazar, axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash
birlashish	merger	sliyanie	ikki yoki undan ortiq kompaniyalar asosida yangi kompaniya vujudga kelishi

daromadlilikning ichki me'yori	Internal Rate of Return – IRR	Vnutrennyaya norma doxodnosti – IRR	NPV nolga teng bo'lganda investitsion loyiha bo'yicha pul oqimlarining sof joriy qiymatini aniqlashga xizmat qiluvchi diskontlashning koeffitsientlari yoki foiz stavkalari
davlat qimmatli qog'ozlari	public securities	Gosbumagi	O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari
davlat unitar korxonasi	State unitary enterprise	Gosudarstvennoe unitarnoe predpriyatie	qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan korxonasi
dekursiv foiz stavkasi	<u>decursive</u> interest rate	dekursivnaya protsentnaya stavka	matematik diskontlashda joriy qiymatni aniqlash me'yori sifatida qo'llaniladigan r stavka
depozit sertifikati	certificate of deposit	sertifikat depozita	bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz
diskont	discount	Diskont	FV va PV o'rtasidagi, ya'ni kelgusi qiymat va joriy

			qiymat o'rtasidagi farq
diskontlash	discounting	Diskontirovanie	pul mablag'larini joylashtirish jarayonida kelgusida ma'lum bir belgilangan summani olish uchun joylashtirish talab etiladigan pul mablag'i miqdorini aniqlash
dividend	dividend	Dividend	bu sotilgan aksiyalar, ulushlar, paylar soniga muvofiqlikda mulkdorlar o'rtasida aniq bir davr bo'yicha taqsimlanadigan korxonaning foydasining bir qismi
dividend siyosati	dividend policy	dividendnaya politika	korxonaning bozor qiymatini va mulkdorlar turmush farovonligini oshirish maqsadida foydaning iste'mol qilinadigan va reinvestitsiya qilinadigan qismlari o'rtasidagi proporsiyani optimallashtirishga yo'naltirilgan korxonaning moliyaviy siyosatining bir qismi
emitent	issuer	emitent	emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs
fond birjasi	Stock Exchange	Fondovaya birja	ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtda va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs



fond indekslariga opsionlar yoki indeksli opsionlar	index options	indeksniy opsion	bazaviy aktivlari fond indekslari bo'lgan opsionlar
fyuchers opsionlari	futures options	fyuchersnie opsioni	bazaviy aktivlari sifatida fyuchers shartnomalari bo'lgan opsionlar
gorizontal birlashish va qo'shib olish	horizontal mergers and acquisition	gorizontalne sliyaniya i priobreteniya	bitta tarmoqda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarning o'zaro birlashishi yoki qo'shib olinish holatlari
investitsion kredit	investment credit	investitsionniy kredit	faoliyat yuritayotgan korxonalarda loyihalar yoki dasturlarni amalga oshirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kredit (kredit liniyasi)
investor	investor	Investor	qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs
Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish	IPO (Initial Public Offering)	pervonachalnoe publichnoe razmeshchenie	aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti
kapital bahosi	Cost of Capital	Stoimost kapitala	ma'lum bir kapital manbasidan foydalanish hisobiga to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summa va kapital hajmi o'rtasidagi nisbatning foizdagi ifodasi
kapital qo'yilmalar budjetini tuzish	capital budgeting	kapital byudjetirovanie	korxonada uzoq muddatli investitsiyalarni rejalashtirish va boshqarish jarayoni
kapital tuzilmasi	capital structure	struktura kapitala	bu qarz kapitali va xususiy kapitalning o'zaro yig'indisi
kapitalizatsiyalash	capitalization	Kapitalizatsiya	olinadigan daromadlarni reinvestitsiyalash jarayoni
kompaniya ustidan nazoratni qo'lga olish	to take control of the company		kompaniya boshqaruvining bir guruh aksiyadorlar qo'lidan boshqasiga o'tishi
konglomerat qo'shib olish	conglomerate acquisition	konglomerat pogloshcheniya	faoliyat yo'nalishlari o'zaro bog'liq bo'lmagan

			kompaniyalarning biri tomonidan ikkinchisining qo‘shib olinishi
korporativ moliya	corporate finance	Korporativnie finansi	korxonaning pul mablag‘lari doiraviy aylanishi jarayonida kapital, daromadlar va pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq keng doiradaga pul munosabatlarini qamrab oluvchi moliya tizimining mustaqil sohasi
korporativ obligatsiyalar	corporate bonds	korporativnaya obligatsiya	ochiq aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilgan tijorat banklari tomonidan chiqariladigan qarz munosabatini anglatuvchi obligatsiyalar
kredit notalari	credit linked notes– CLN	Kreditnaya nota	ta‘minlanmagan qarz mablag‘lari ajratish usuli
LIBOR (London Interbank offered rate)	London banklararo o‘rtacha foiz stavkasi	Londonskaya mejbankovskaya stavka predlojeniya	London banklararo o‘rtacha foiz stavkasi
lizing	lease	Lizing	moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdin (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob‘ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi
mas‘uliyati cheklangan jamiyat	Limited Liability	<u>Obshchestvo s ogranichennoy</u>	bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta‘sis etilgan,

	Company	<u>otvetstvennostyu</u>	ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat
milliy birlashishlar	national mergers	natsionalnie sliyaniya	bitta davlatda joylashgan kompaniyalarning o'zaro birlashishi
moliya bozori	financial market	finansoviy rinok	moliyaviy instrumentlar yordamida pul mablag'lari oqimlarini investorlardan foydalanuvchilarga yo'naltirishga xizmat qiluvchi barcha bozor institutlari majmui
moliya bozori sig'imi	the capacity of the financial market	emkost finansovogo rinka	aniq bir turdagi qimmatli qog'ozlar bo'yicha ularga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda mumkin bo'lgan yillik (oylik) savdo ko'lami
moliyaviy aktiv	financial asset	finansoviy aktiv	bu pullik qiymatga ega, mulkiy huquqni o'zida ifodalovchi, bozorda mustaqil muomalada bo'ladigan, oldi-sotdi yoki boshqa bitimlar ob'ekti bo'la oladigan, shuningdek, daromad olish manbasi sifatida xizmat qiluvchi hujjat yoki bitim hisoblanadi
moliyaviy menejer	financial manager	Finansoviy menedjer	biznes egasining agenti sifatida mulkdor manfaatlar uchun faoliyat yurituvchi shaxs
moliyaviy risklar	financial risks	finansoviy risk	belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning noaniqligi sharoitida moliyaviy faoliyatdan ko'zlangan maqsad natijalariga yo'naltirilgan mulkdorlar yoki moliyaviy menejerlar tomonidan qabul qilingan muqobil moliyaviy

			qarorlarni tanlashning iqtisodiy zarar (moliyaviy yo'qotish)lar keltirish ehtimoli
O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari	Debt obligations of the Republic of Uzbekistan	Dolgovie obyazatelstva Respubliki Uzbekistan	emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganliklarini tasdiqlovchi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beruvchi emissiyaviy qimmatli qog'ozlar
obligatsiya	bond	Obligatsiya	qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'oz
ochiq aksiyadorlik jamiyati	Open Joint Stock Company	Otkritoe aktsionernoe obshchestvo	qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati
opsion koll	option call	Opsion kol	kelajakda bitimda belgilangan shartlarda bazis aktivini sotib olish huquqini beruvchi opsion
opsion put	option put	Opsion put	o'z egasiga kelajakda bazis aktivini bitim shartlariga muvofiq sotish huquqini beruvchi opsion
opsion	option	Opsion	kelishilgan muddat davomida ma'lum bir mukofot summasi hisobiga belgilangan miqdordagi tovarlar yoki moliyaviy instrumentlarni belgilangan narx bo'yicha sotib olish yoki sotish huquqini beruvchi bitim
opsionning ijro	strike price	tsena strayk	bitimda qayd etilgan

etilish (bajarilish) bahosi			bazaviy aktivlar bahosi
overdraft	overdraft	Overdraft	ta'minot rasmiylashtiruviziz mijoz hisobraqami bo'yicha mablag'larning belgilangan limit ko'rsatkichidan yuqori bo'lishini ta'minlashga qaratilgan kredit shakli
PIBOR	Paris Interbank offered rate	Stavka predlojeniya mejbankovskogo rinka depozitov v Parije	Parij banklararo o'rtacha foiz stavkasi
qaram jamiyat	dependent company	zavisimogo obshchestva	ovoz berish huquqiga ega aksiyalarining yigirma foizidan ko'prog'iga boshqa xo'jalik jamiyati egalik qiladigan xo'jalik jamiyati
qimmatli qog'ozlar bozori	securities market	rinok tsennix bumag	yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi
qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari	participants in the securities market	Uchastniki rinok tsennix bumag	qimmatli qog'ozlar emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, fond birjalari
qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat	professional activities in the securities market	professionalnaya deyatelnost na rinke tsennix bumag	qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi
qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi	professional participants of the securities market	professionalnie uchastniki rinka tsennix bumag	qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs
qimmatli qog'ozlar	The register	Reestr vladeltsev	ro'yxatdan o'tkazilgan

egalar reestri	of holders of securities	tsennix bumag	qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlarning nomi, miqdori, nominal qiymati va toifasi, shuningdek, reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati
qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi	Prospectus of securities	Prospekt emissii tsennix bumag	emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat
qimmatli qog'ozlar emissiyasi	The emission of securities	Emissii tsennix bumag	emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish
qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi	Central securities depository	Tsentrlniy depozitariy tsennix bumag	depozitariylarda depo hisobvaraqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlash, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakati yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi
qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers	The futures on securities	Fyuchersi na tsennie bumagi	o'zida nazarda tutilgan muddatda muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarni qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog'oz

qimmatli qog'ozlarni joylashtirish	Placing securities	Razmeshchenie tsennix bumag	qimmatli qog'ozlarni bitimlar tuzish orqali ularning dastlabki egalariiga berish
qimmatli qog'ozlarni nominal saqllovchi	The nominal holder of securities	Nominalniy derjatel tsennix bumag	qimmatli qog'ozlar egalariining reestrída ro'yxatdan o'tkazilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda boshqa shaxsning (qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning) topshirig'iga binoan qimmatli qog'ozlarni saqlash, hisobga olish va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni amalga oshiruvchi depozitariy
qimmatli qog'ozlarning hosilalari	The derivative securities	Proizvodnie tsennie bumagi	o'z egalariining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsiionlari, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar
qimmatli qog'ozlarning muomalasi	The circulation of securities	Obrashchenie tsennix bumag	qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar
qo'shib olish	acquisition	pogloshcheniya	bir kompaniyaning boshqa bir kompaniya ustidan nazorat o'rnatishi va o'zini ushbu kompaniyaning yangi egasi deb e'lon qilishi
qoplash muddatigacha	Yield to maturity	Doxodnost k pogasheniyu	investorning qimmatli qog'ozni qoplash

daromadlilik			muddatigacha saqlashi natijasida olishi mumkin bo'lgan daromadlilik darajasi
sho'ba xo'jalik jamiyati	subsidiary company	dochernyaya kompaniya	bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lgan holatdagi ikkinchi xo'jalik jamiyati
sindikatsiyalashgan kredit	syndicated credit	sinditsirovanniy kredit	bitta qarz oluvchining keng ko'lamli xo'jalik dasturlari yoki yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishni moliyalashtirish maqsadida kreditorlar tomonidan o'zaro birlashgan holda taqdim etiladigan uzoq muddatli kredit
solisqlarni rejalashtirish	tax planning	nalogovoe planirovanie	qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini kamaytirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda solisqlar va majburiy ajratmalar bo'yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turi
transmilliy birlashishlar	transnational merger	transnatsionalnoe sliyanie	turli davlatlarda joylashgan kompaniyalarning o'zaro birlashishi
unitar korxonona	unitary enterprise	unitarnoe predpriyatie	o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijorat



			tashkiloti
veksel	bill	Veksel	veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz
xorijiy valyutalar bo'yicha opsionlar	the foreign currency options	Optionsi v inostrannoy valyute	bazaviy aktivlari xorijiy valyutalar bo'lgan opsionlar
yopiq aksiyadorlik jamiyati	closed joint-stock company	zakritoe aktsionernoe obshchestvo	aksiyalari faqat o'z ta'rischilari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar o'rtasida taqsimlanadigan aksiyadorlik jamiyati

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ME`YORIY HUQUQIY HUJJATLAR RO`YXATI

## I. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O`zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. 1-jild. – T.: “O`zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O`zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug`, hayoti yorug` va kelajagi farovon bo`ladi. 3-jild.– T.: “O`zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O`zbekiston”, 2020. – 400 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2018.
2. O`zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta`lim to`g`risida”gi O`RQ-637-sonli Qonuni.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabr “2020 yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to`g`risida”gi O`RQ-589-sonli Qonuni
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta`lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi 4947-sonli Farmoni.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust “O`zbekiston Respublikasida investitsiya muxitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5495-sonli Farmoni.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabr PQ-4022-sonli “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori.
10. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O`zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5729-son Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun "2019-2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyun "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5755-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabr "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 yanvar "O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4563 -sonli Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

20. Umarxodjaeva M.G'., Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruvning institutsional asoslari" O'quv qo'llanma.- TDIU, 2019. – 305 bet.

21. Umarxodjaeva M.G'., Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruv-2" O'quv qo'llanma.- TDIU, 2019. – 218 bet.

22. O'rmonov N.T., Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruv: printsiplar, siyosat va amaliyot". O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 254 bet.

23. Elmirzaev S. Korporativ boshqaruv. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 415 bet.

24. Marc Goergen. Corporate Governance: A Global Perspective, 1st Edition, 2018.

25. Tricker, R Corporate Governance: Principles, Policies and Practices, Oxford University Press. 2019

26. Xodiev B.Yu., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O’quv qo’llanma. -T.: 2011 y.
27. Xodiev B.Yu., Karlibaeva R.X., Akramova N.I. Korporativ boshqaruv. O’quv qo’llanma. – TDIU, 2010. – 280 bet.
28. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
29. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
30. Eugene Brigham, Joel Houston. Fundamentals of Financial Management. 8th Edition. USA: Cengage Learning, 2014. - 688 pages.
31. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
32. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
33. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
34. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
35. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. – 1107 p.
36. Francis J. Clauss. Corporate Financial Analysis with Microsoft Excel. McGraw-Hill, 2010. – 528 p.
37. John C. Hull. Options, Futures and Other Derivatives. – Pearson Education Limited, 2012. – 869 p.
38. Stephen A. Ross, Randolph W. Westerfield, Bradford D. Jordan. Fundamentals of Corporate finance. – New York, 2010. – 708 p.
39. Suk Kim, Seung H.Kim. Global corporate finance. – Blackwell, 2006. – 598 p.
40. Vishwanath S.R. Corporate finance: theory and practice. – London, 2007. – 764 p.
41. Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 532 b.
42. Adilov M. Tadbirkorlik faoliyatida soliqlarni rejalashtirish. – T.: “Norma”, 2012. – 420 b.
43. Axmedov X. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy rejalashtirishni samarali tashkil etish va takomillashtirish. – T.: “Tamaddun”, 2013. – 120 b.
44. Blank I.A. Finansoviy menedjment. Uchebnik. Kiev: Niga Tsentr, 2004, 655 st. Laxmetkina N.I. Investitsionnaya strategiya predpriyatiya. Uchebnoe posobie. – M.: «Knorus», 2006. – 184 s.
45. Botirov A., Elmirzaev S. Kichik tadbirkorlik sub’ektlarini soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo’llari. – T.: “Tamaddun”, 2013. – 164 b.
46. Bocharov V. V. Korporativnie finansi. – SPb.: «Piter», 2008. – 272 s.
47. Bocharov V.V., Leontev V.E. Korporativnie finansi. – SPb.: «Piter», 2004. – 592 s.
48. Breyli Richard, Mayers Styuart. Printsipi korporativnix finansov. / Per. s angl. N.Barishnikovoy. – M.: ZAO “Olimp-Biznes”, 2008. – 1008 s.
49. U.Burxonov. Moliyaviy konsepsiyalar. // “Moliya” ilmiy jurnali, 2010. - №4. – B. 12-20

50. Glazkova T.N. Upravlenie korporativnimi finansami. – Barnaul, 2008. – 165 c.
51. Goxan P. A. Sliyaniya, pogloshcheniya i restrukturizatsiya kompaniy. – M.: Alpina Biznes Buks, 2004. – 741 c.
52. Evstigneev E.N. Osnovi nalogovogo planirovaniya. – SPb.: Piter, 2004. – 288 st. Petrov A.V. Nalogovaya ekonomiya: realnie resheniya. – M.: Izdatelstvo «Berator-pabliishing», 2007. – 680 s.
53. Karaseva I.M. Revyakina M.A. Finansoviy menedjment. Uchebnoe posobie. – M.: «OmegaM», 2006. – 335 s.
54. Kurbanov X. Korporativnie finansi. – T. «Iqtisod-moliya», 2007. – 184 s.
55. Qulliev I. Tijorat banklarida kredit bahosining shakllanish amaliyoti va uni takomillashtirish. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. – 128 b.
56. Lukasevich I. Finansoviy menedjment. – M. «Eksmo», 2010. – 768 s.
57. Lukasevich I.Ya. Analiz finansovix operatsiy. Metodi, modeli, texnika vichisleniy. – M.: Finansi, YuNITI, 1998. – 400 s.
58. Malikov T.S. Moliya: Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar moliyasi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 288 bet.
59. Serdyukov A.E., Vilkovala E.S, Tarasevich A.L. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd. – SPb.: “Piter”, 2008, - 704 st.
60. Tarasevich L.S., Grebennikov P.I., Leusskiy A.I. Teoriya korporativnix finansov. – M.: “Visshee obrazovanie”, 2007. – 237 s.
61. Teplova T. Korporativnie finansi. – M.: «Yurayt», 2013. – 655 s.
62. Toshmurodova B., Elmirzayev S., Axmedov X. Korporativ moliya strategiyasi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2013. – 128 b.
63. Toshmurodova B.E., Elmirzayev S.E. Korporativ soliq menejmenti. – T.: “Mumtoz so‘z”. – 104 b.
64. Elmirzaev S., Qurbanqulova N. O‘zbekistonda soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari. – T.: “Tamaddun”, 2013. – 156 b.
65. Elmirzayev S. E. Korporativ moliya. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 256 b.
66. Yanukyan M.G. Praktikum po rinku tsennix bumag. – SPB.: «Piter», 2006. – 192 s.

### INTERNET SAYTLARI

1. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining rasmiy sayti.
2. <http://www.press-service.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
3. <http://www.znay.ru> – Elektron kutubxona.
4. <http://www.worldbank.org> – Jahon banki rasmiy sayti.
5. <http://www.raexpert.ru> – Ekspert RA Reyting agentligi.

6. <http://www.csm.gov.uz> – Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi.
7. <http://www.exchange.de> – Frankfurt fond birjasi.
8. <http://www.fibv.com> – Fond birjalari xalqaro federatsiyasi.
9. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
10. <http://www.londonstockex.co.uk> – London fond birjasi.
11. <http://www.mergermarket.com> – M&A bozori ma’lumot va yangiliklari.
12. <http://www.nasdaq.com> – NASDAQ.
13. <http://www.tse.or.jp> – Tokio fond birjasi.
14. <http://www.twirpx.com> – Vse dlya studenta.
15. <http://www.uzse.com> – Toshkent respublika fond birjasi.
16. <http://www.wikipedia.org> – Vikipediya erkin ensiklopediyasi.
17. <http://www.vestifinance.ru> – Iqtisodiyot xabarlari.
18. <https://inventure.com.ua> – Inventure investitsion portali.
19. <http://www.openinfo.uz> – Korporativ axborotlar yagona portali